2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 98 (1697), 2026-yil 15-may, juma

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

OSIYO XOTIN-QIZLARINING IKKINCHI FORUMI ISHTIROKCHILARIGA

Hurmatli forum qatnashchilari!
Xonimlar va janoblar!

Avvalambor, anjumanga tashrif buyurgan mehmonlarimizni chin qalbimdan qutlab, barchangizni Osiyo xotin-qizlarining ikkinchi forumi ochilishi bilan qizg‘in muborakbod etaman.

Asrlar davomida ilm-fan, madaniyat va sivilizatsiyalar tutashgan boqiy va hamisha navqiron Buxoro shahrida jam bo‘lgan siz, azizlarga samimiy salomimni hamda eng ezgu tilaklarimni izhor etishdan mamnunman.

Mazkur forumni o‘tkazish tashabbusini qo‘llab-quvvatlab, anjuman ishida faol ishtirok etayotgan Birlashgan Millatlar Tashkiloti va uning ixtisoslashgan muassasalariga, barcha xalqaro tashkilotlarga, Osiyo mamlakatlaridan tashrif buyurgan parlament delegatsiyalari a’zolariga, senator va deputatlarga alohida minnatdorlik bildiraman.

Ma’lumki, Osiyo xalqlarining tarixi, madaniyati, qadriyatlari bir-biriga yaqin hamda mushtarak bo‘lib, bu jihat mintaqada barcha sohalarni o‘zaro birlashtiradigan, turli millat ayollarini hamkorlikka chorlaydigan omillardan hisoblanadi.

Bugun Osiyo qit’asida istiqomat qilayotgan 5 milliardga yaqin aholining qariyb yarmini ayollar tashkil etadi. Biz ularning timsolida nafaqat nafosat sohibalarini, balki mamlakatlarimiz taraqqiyotini jadallashtirish, xalqlar farovonligini yuksaltirish va adolatli dunyoni barpo etish yo‘lidagi ulkan bunyodkor kuchni ko‘ramiz.

Sizlarning yuksak professional mahoratingiz, boy bilim va tajribangiz hamda birdamlikka qat’iy intilishingiz keng mintaqamizdagina emas, balki dunyo miqyosida xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini samarali himoya qilishga xizmat qilmoqda.

Hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Xotin-qizlarning huquq va erkinliklari, manfaatlarini ta’minlash, ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish Yangi O‘zbekiston islohotlarining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Zero, ayolga e’tibor — bu, avvalo, inson shaxsiga, uning qadriga bo‘lgan yuksak ehtiromning oliy namunasidir. Xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rnini mustahkamlash faqat siyosiy vazifa emas, balki erkin va farovon jamiyat barpo etish yo‘lidagi izchil demokratik yangilanishlarning ajralmas qismi hamdir.

So‘nggi yillarda yurtimizda gender tenglikni ta’minlash borasida mustahkam huquqiy va institutsional poydevor yaratildi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya hamda “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi ayollar huquqlari, onalik va bolalikni himoya qilishning institutsional kafolatlarini mustahkamladi.

Keng ko‘lamli islohotlar natijasida xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi ulushi 35 foizga, tadbirkorlik sohasida 37 foizga, siyosiy partiyalar tarkibida esa 49 foizga yetib, O‘zbekiston bu ko‘rsatkich bo‘yicha xalqaro reytinglarda yetakchi mamlakatlar qatoridan joy oldi. Xususan, Parlamentlararo Ittifoq tomonidan yuritiladigan “Parlamentdagi ayollar” reytingida respublikamiz 193 ta mamlakat orasida 35-o‘ringa ko‘tarildi.

Ijro hokimiyati tizimida rahbar ayollar safining kengayishi va mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlaridagi ishtirokining ortishi davlat tomonidan qarorlar qabul qilinishida inklyuzivlikni ta’minlamoqda.

Oliy ta’lim muassasalari talabalari orasida ayollar ulushi keskin ortgani, jumladan, magistraturada tahsil olayotgan xotin-qizlarning soni oxirgi besh yilda 11 karraga ko‘payganini islohotlarimizning muhim strategik natijasi deb bilamiz.

Ayniqsa, yurtimizda xotin-qizlarning iqtisodiy mustaqilligini ta’minlash taraqqiyotning ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. 2025-yilda 2,6 million nafar xotin-qizning daromadli mehnat bilan band bo‘lishiga ko‘maklashildi. O‘zbekiston joriy yilda “Ayol, biznes va qonun” xalqaro indeksida o‘z pozitsiyasini 43 pog‘onaga yaxshilab, 190 ta davlat o‘rtasida 48-o‘rinni egallaganini mamnuniyat bilan qayd etmoqchiman.

Hurmatli forum qatnashchilari!

Bugungi murakkab davrda xotin-qizlarning iqtisodiyotdagi ishtiroki hamda ulushini keskin oshirish, davlat va jamiyat boshqaruvidagi ta’sirini kuchaytirish, ularning intellektual salohiyatidan unumli foydalanish dolzarbdir. Bu borada davlatlarimiz tadbirkor xotin-qizlari o‘rtasidagi ko‘p qirrali sheriklikni kengaytirish, biznes forumlar va xalqaro treninglar o‘tkazib borilishidan manfaatdormiz.

Shuningdek, mamlakatlarimiz ishbilarmon ayollari imkoniyatlarini yangi bosqichga olib chiqish maqsadida hayotimizga shiddat bilan kirib kelayotgan sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmalarini o‘rgatuvchi, yangi startap loyihalarini qo‘llab-quvvatlovchi platforma tashkil etish taklifini ilgari suramiz.

Ertaga butun dunyoda “Xalqaro oila kuni” keng nishonlanadi. Sharq davlatlarida jamiyatning mustahkam poydevori, qo‘rg‘oni bo‘lgan oilaviy qadriyat va an’analarini bezavol saqlash so‘nggi yillarda tobora dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Mazkur forum doirasida mamlakatlarimizdagi oila institutini tadqiq etish bo‘yicha ilmiy muassasalar tarmog‘ini shakllantirib, eng ilg‘or tajribalarni o‘zaro almashish albatta o‘zining kutilgan samarasini beradi.

Umuman olganda, mazkur forum kelgusida Osiyoda barcha darajada qarorlar qabul qilish jarayonida ayollarning rolini oshiradigan sermahsul muloqot maydoniga aylanishi shubhasiz. Shu ma’noda, ushbu anjuman doirasida sizlar barqaror taraqqiyotni ta’minlash borasida yangi tashabbus va ezgu g‘oyalarni faol ilgari surishingizga qat’iy aminman.

Barchangizga sihat-salomatlik, oilaviy baxt-saodat va omad, sharafli faoliyatingizda zafarlar, forum ishiga muvaffaqiyat tilayman.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

O‘ZBEKISTON PREZIDENTI AMALIY TASHRIF BILAN QOZOG‘ISTONDA BO‘LADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayevning taklifiga binoan 15-may kuni amaliy tashrif bilan ushbu mamlakatda bo‘ladi.

Davlatimiz rahbari Turkiston shahrida Turkiy davlatlar tashkilotining “Sun’iy intellekt va raqamli rivojlanish” mavzusidagi norasmiy sammitida ishtirok etadi.

Tadbir davomida ko‘p tomonlama hamkorlikni, birinchi navbatda, savdo-iqtisodiyot, investitsiya, transport-kommunikatsiya va ekologiya sohalarida hamda raqamli infratuzilmani rivojlantirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va sun’iy intellektni amalda qo‘llashni yanada kengaytirish xususida so‘z yuritiladi.

Delegatsiyalar rahbarlari xalqaro va mintaqaviy kun tartibidagi dolzarb masalalarni ham muhokama qiladilar.

Tadbir yakunida Turkiston deklaratsiyasini qabul qilish ko‘zda tutilgan.

O‘zA

Kubanichbek OMURALIYEV: “TURKISTON SAMMITI TURKIY DUNYO RAQAMLI INTEGRATSIYASINI YANGI DARAJAGA OLIB CHIQADI”

Qozog‘istonning Turkiston shahrida bo‘lib o‘tadigan Turkiy davlatlar tashkilotining norasmiy sammiti arafasida “Dunyo” AA muxbiri Tashkilot bosh kotibi Kubanichbek OMURALIYEV bilan bo‘lajak yig‘ilish kun tartibidagi dolzarb masalalar xususida suhbatlashdi.

— Til, tarix va madaniy umumiylik asosida tashkil etilgan Turkiy davlatlar tashkiloti (TDT) bugungi kunda zamonaviy muammolarni birgalikda hal qilishga qaratilgan muhim tuzilmaga aylanmoqda. Hozirgi paytda Tashkilot faoliyatining qaysi ustuvor yo‘nalishlari birinchi o‘ringa chiqmoqda va Turkistonda bo‘lib o‘tadigan norasmiy sammitdan qanday amaliy natijalar kutilyapti?

— Bugun Turkiy davlatlar tashkiloti, ehtimol, o‘z taraqqiyotining eng jadal bosqichini boshdan kechirmoqda. So‘nggi yillarda TDT sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarildi va tizimli hamda uzoq muddatli faoliyatga o‘tganini namoyon qildi. Bu, ayniqsa, so‘nggi sammitlar yakunlarida raqamli iqtisodiyot, transport o‘zaro bog‘liqligi, savdo va gumanitar hamkorlik sohalarida aniq qarorlar qabul qilinganida yaqqol ko‘rindi.

Tashkilot faoliyati iqtisodiyot, savdo, transport va qishloq xo‘jaligidan tortib, raqamli iqtisodiyot, “yashil” energetika, ta’lim, fan va hatto kosmik tadqiqotlargacha bo‘lgan 60 dan ortiq yo‘nalishni qamrab olgan.

Faoliyatimizda “Turkiy dunyo nigohi — 2040”, TDTning 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan strategiyasi va Turkiy dunyo xartiyasi uzoq muddatli ishlarimizning asosi bo‘lib xizmat qilmoqda. Aynan shu hujjatlar Tashkilotimiz rivojining muhim yo‘nalishlarini belgilab beradi. Shu bilan birga, asosiy e’tibor tobora amaliy masalalarga — O‘rta koridorni rivojlantirish, transport bog‘liqligi, savdo jarayonlarini soddalashtirish, raqamli transformatsiya va energetik hamkorlikka qaratilyapti.

Davomi 2-betda

INTENSIV SANOATLASHGAN BOG‘LAR BO‘YICHA ANIQ LOYIHALAR SHAKLLANTIRILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev hududlarda intensiv sanoatlashgan bog‘larni ko‘paytirish chora-tadbirlari yuzasidan yig‘ilish o‘tkazdi.

Mamlakatimizda meva-sabzavotchilikni rivojlantirish, eksportbop mahsulotlar yetishtirish va qishloq aholisini daromadli qilish bo‘yicha izchil ishlar amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda yurtimizda 572,6 ming gektar bog‘ va tokzor mavjud bo‘lib, ular yiliga 1 milliard dollarlik eksportni ta’minlamoqda, 882 ming nafar aholining daromad manbaiga aylangan.

Shu bilan birga, yer va suv resurslari cheklangan hozirgi sharoitda sohadagi o‘sishni faqat maydonlarni kengaytirish hisobidan emas, balki har bir gektardan olinadigan hosildorlik va daromadni oshirish orqali ta’minlash zarurligi ta’kidlandi. O‘zbekiston 2030-yilga qadar oziq-ovqat mahsulotlari eksportini 10 milliard dollarga yetkazishni maqsad qilgan. Bunda intensiv, sanoatlashgan bog‘dorchilikni kengaytirish muhim omil bo‘ladi.

Yig‘ilishda mavjud bog‘ va tokzorlar holati tahlil qilindi. Hozirda 61 ming gektar eskirgan va 18 ming gektar yaroqsiz bog‘larni yangilash zarur. Ayrim hududlarda bunday maydonlardan gektariga bor-yo‘g‘i 5 tonna hosil olinmoqda, yillik daromad esa 10 million so‘mga ham yetmayapti.

Misol uchun, Pop tumanida 1 ming 200 gektar eski va yaroqsiz bog‘lar mavjud. Agar ular o‘rnida eksportbop navlar ekilib, quritish, saralash va qadoqlash bo‘yicha agrologistika markazlari tashkil etilsa, hosildorlik va daromadni bir necha barobar oshirish mumkin. Mazkur tumanda 84 gektarda barpo etilgan eksportbop gilos bog‘i tajribasi ham intensiv bog‘dorchilikning amaliy natijasini ko‘rsatmoqda. Hali to‘liq hosilga kirmagan yosh ko‘chatlardan ham gektariga 7 tonnadan hosil olinib, bir kilogramm mahsulot 8 dollardan eksport qilinmoqda.

Shu bois, eski va yaroqsiz bog‘lar bilan ishlash bo‘yicha yangi tartib joriy etish taklif qilindi. Bu jarayonda Agrosanoatni rivojlantirish agentligi bog‘ va tokzorlarni yaroqsiz deb topish, sanoatlashgan bog‘lar barpo etish yoki haydaladigan yerlar toifasiga o‘tkazish bo‘yicha xulosa beradi. 12 oy davomida sanoatlashgan bog‘ barpo etilmagan maydonlar uchun yer va suv solig‘i stavkasini oshirish, bu holat yana 12 oy davom etsa, suvdan foydalanishni cheklash taklif etildi.

Prezidentimiz yerdan samarali foydalanish ustidan nazoratni raqamlashtirish zarurligini ta’kidladi. Eskirgan va yangi sanoatlashgan bog‘lar holatini kosmik tasvirlar orqali monitoring qilish bo‘yicha axborot tizimini ishga tushirish topshirildi.

Tomorqa va dehqon xo‘jaliklaridagi eski bog‘larni yangilash ham e’tibordan chetda qolmasligi kerakligi ko‘rsatib o‘tildi. Buning uchun mahalla bankiri orqali aholiga 50 donagacha ko‘chat yoki

2 million so‘mgacha qarz berish, dehqon xo‘jaliklariga esa eskirgan bog‘larni yangilash uchun 150 million so‘mgacha kredit ajratish taklif qilindi.

2026-2028-yillarda 168 ming gektar sanoatlashgan bog‘ va tokzorlar tashkil etish rejalashtirilgan. Buning hisobiga 2 milliard dollar investitsiya jalb qilinib, 258 mingta ish o‘rni yaratilishi kutilmoqda.

Bunday loyihalarni moliyalashtirish va amaliy qo‘llab-quvvatlash uchun 9 ta tijorat banki hududlarga biriktiriladi. Ular sanoatlashgan bog‘larni tadbirkorlarga tayyor holda topshirish bilan birga ikki yil davomida agrotexnik, moliyaviy va tashkiliy jihatdan kuzatib boradi.

Yig‘ilishda intensiv bog‘ tashkil qilmoqchi bo‘lgan tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha alohida tizim joriy etilishi belgilandi. Joylardagi “Agrostar” kompaniyalari tadbirkorlar bilan ulushdorlik asosida hamkorlik qiladi. Bunda “Agrostar” kompaniyalari ustav kapitalining 50 foizigacha qismida pul mablag‘i bilan, tadbirkor esa yer uchastkasiga bo‘lgan ijara huquqi bilan ishtirok etadi.

Tadbirkorlarga “Agrostar” kompaniyasi ulushini qayta baholamasdan 7 yil ichida bo‘lib-bo‘lib sotib olish huquqi beriladi. Bu tizim eski bog‘ egalarini ham manfaatdor qiladi: ular yangilangan bog‘lardan orttirgan daromadi hisobidan ulushni bosqichma-bosqich sotib olib, keyinchalik intensiv bog‘ga to‘liq egalik qilishi mumkin bo‘ladi.

Bunday loyihalarga banklar tomonidan har bir gektar uchun 120 million so‘mgacha kredit ajratiladi. Kredit vaqtida qaytarilsa, foiz stavkasining yarmi kompensatsiya qilinadi. Shuningdek, sanoatlashgan bog‘larning parvarishlash xarajatlari uchun 3 yil davomida har gektarga 5 million so‘mdan subsidiya beriladi.

Suv tejovchi texnologiyalar, mevali ko‘chat va qishloq xo‘jaligi texnikasini xarid qilish uchun tadbirkorlar islom moliyasi xizmatlaridan foydalanishi mumkin bo‘ladi.

Prezidentimiz yig‘ilishda so‘zga chiqqan tadbirkorlarning fikr-mulohazalarini tingladi. Ularning yetishtirilgan yoki import qilingan mevali ko‘chatlar va payvandtaglar uchun qo‘shilgan qiymat solig‘ini nol stavkada qo‘llash, suv tejovchi texnologiyalar o‘rnatilgan sanoatlashgan bog‘larda quduqlardan olinadigan suv uchun soliqni 5-yil muddatga 1 so‘m etib belgilash haqidagi takliflarini ma’qulladi.

Mutasaddilarga eski va samarasiz bog‘larni yangilash, sanoatlashgan bog‘lar bo‘yicha aniq loyihalarni shakllantirish, banklar, hokimliklar va tadbirkorlar hamkorligini tizimli yo‘lga qo‘yish, har bir hududda eksportbop navlar, agrologistika va qayta ishlash quvvatlarini rivojlantirish yuzasidan topshiriqlar berildi.

O‘zA

O‘ZBEKISTON — TDT: KENG KO‘LAMLI HAMKORLIKNI MUSTAHKAMLASH VA BARQAROR TARAQQIYOT SARI

2026-yil 15-may kuni O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Turkiy davlatlar tashkilotining Turkiston shahrida bo‘lib o‘tadigan norasmiy sammitida ishtirok etadi.

Bo‘lajak oliy darajadagi tadbir hamkorlikning dolzarb masalalarini muhokama qilish va a’zo davlatlar o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirishning keyingi ustuvor yo‘nalishlarini belgilash uchun muhim maydonga aylanadi.

Turkiy integratsiya makonining shakllanishi ko‘p yillik tarixga ega bo‘lib, u nafaqat til, madaniyat va tarixiy meros mushtarakligiga, balki turkiy xalqlarning boy ma’rifatparvarlik va intellektual tafakkur an’analariga ham tayanadi. XIX asr oxiri — XX asr boshlaridagi jadidchilik harakati madaniy va ma’naviy yaqinlashuv g‘oyalari shakllanishida alohida o‘rin tutdi. Uning namoyandalari ta’lim, ilm-fan, jamiyatni modernizatsiyalash va turkiy xalqlar o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlash tarafdori bo‘lgan.

Turkiy tilli davlatlar rahbarlarining birinchi sammiti 1992-yilda Turkiya Bosh vaziri Turgut O‘zal tashabbusi bilan Anqara shahrida o‘tkazilgan. 1996-yilgi Toshkent deklaratsiyasida davlat rahbarlari kotibiyat tuzish to‘g‘risidagi qoidani mustahkamlab qo‘ygan. Keyingi yillarda mazkur format izchil rivojlanib, 2009-yilda Naxichevanda Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashi tashkil etildi. 2021-yilda Istanbul sammitida tuzilmani Turkiy davlatlar tashkiloti (TDT) ga aylantirish to‘g‘risida qaror qabul qilindi. Bu tashkilot faoliyati kengayishi va xalqaro ahamiyati ortib borayotganini aks ettirdi.

Davomi 2-betda

QADRIYATLAR QO‘RG‘ONI, JAMIYAT VA DAVLATNING KUCH-QUDRATI MANBAYI

“Oilamiz – kelajagimiz” oyligi o‘tkazilmoqda

Dunyoning qaysi burchagiga bormang, qaysi sivilizatsiyaning tarixini varaqlamang, barchasida bir haqiqat mushtarak: jamiyat va davlatning kuch-qudrati oiladan boshlanadi. Shu mo‘jazgina makonda ulkan bunyodkorlik g‘oyalari tug‘iladi, kelajak egalari kamol topadi. Demakki, mamlakatning ertangi kuni shu kichik qo‘rg‘on sohib-u sohibalariga chambarchas bog‘liq.

Oila — avlodlar orasida mustahkam ko‘prik, qadriyatlar asraluvchi oltin qo‘rg‘on, muhim ijtimoiy institut. Shu bois, hech qaysi davlat bu asriy tuzilmaga bee’tibor qaray olmaydi. Yangi O‘zbekistonda esa bu masalada aniq va izchil siyosat yuritilmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Osiyo xotin-qizlarining ikkinchi forumi ishtirokchilariga yo‘llagan murojaatida xotin-qizlarning huquq va erkinliklari, manfaatlarini ta’minlash, ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, pirovardida oilalar farovonligiga ko‘maklashish yangi O‘zbekiston islohotlarining ustuvor yo‘nalishiga aylangani ta’kidlanib, oila institutini tadqiq etish bo‘yicha ilmiy muassasalar tarmog‘ini shakllantirish, shuningdek, eng ilg‘or tajribalarni o‘zaro almashish kutilgan samarani berajagiga ishonch bildirdi.

Davomi 3-betda

Mazkur tashabbuslarning barchasi bitta umumiy maqsadga qaratilgan — turkiy makonni yanada jipslashgan, raqobatbardosh va iqtisodiy jihatdan barqaror hududga aylantirish. Bugun biz TDT doirasidagi hamkorlik sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarilayotganini ko‘rib turibmiz.

YANGI O‘ZBEKISTON

2026-yil 15-may, 98-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

Kubanichbek OMURALIYEV: “TURKISTON SAMMITI TURKIY DUNYO RAQAMLI INTEGRATSIYASINI YANGI DARAJAGA OLIB CHIQADI”

Boshlanishi 1-betda

Gumanitar yo‘nalish ham muhim ahamiyatga ega. Chunki aynan u ta’lim, madaniyat va yoshlar loyihalari orqali jamiyatlarimizni yaqinlashtirish uchun uzoq muddatli asos yaratadi.

Shuning uchun Turkistondagi bo‘lajak sammit alohida ahamiyat kasb etadi. Uning markaziy mavzularidan biri sun’iy intellekt va raqamli rivojlanish ekani juda muhim. Aynan shu yo‘nalishlar bugun iqtisodiyot, xavfsizlik va davlatlarning xalqaro raqobatbardoshligiga ta’sir ko‘rsatmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan Tashkilot doirasida ilgari surilgan tashabbuslarning dolzarb ekanini alohida ta’kidlamoqchiman. Jumladan, kelajak iqtisodiyotini keng joriy etishga qaratilgan “Raqamli turkiy dunyo” konsepsiyasini ishlab chiqish, shuningdek, sun’iy intellekt va kreativ iqtisodiyot sohasidagi loyihalar bo‘yicha “yo‘l xaritasi”ni qabul qilish tashabbuslari TDT doirasidagi hamkorlik ustuvor yo‘nalishlarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Turkistonning uchrashuv maydoni sifatida tanlangani ham juda muhim. U turkiy dunyoning ma’naviy va tarixiy markazlaridan biri bo‘lib, avlodlar vorisiyligi va umumiy madaniy merosimizning ramzi hisoblanadi.

Turkistonda raqamlashtirish, innovatsiyalar va texnologik hamkorlik sohalarida aniq kelishuvlarga erishiladi deb umid qilmoqdamiz. Sammitning asosiy yakunlaridan biri Turkiston deklaratsiyasining qabul qilinishi bo‘lishi kutilmoqda. U yaqin yillardagi hamkorlik ustuvor yo‘nalishlarini belgilab, Tashkilot rivojiga qo‘shimcha turtki beradi.

— Bugun TDTga tobora muhim mintaqaviy platforma sifatida qaralmoqda. Turkiy davlatlar o‘rtasida transport-logistika koridorlari, savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlikni mustahkamlash uchun tashkilot qanday aniq mexanizm va tashabbuslarni ilgari surmoqda?

— Bugun TDTning asosiy vazifalaridan biri turkiy makonning ulkan salohiyatini mamlakatlarimiz va fuqarolarimiz uchun real iqtisodiy imkoniyatlarga aylantirishdir.

Mintaqaning salohiyati haqiqatan juda katta. Bu hudud taxminan 175 million aholini birlashtiradi. TDTning Sharq va G‘arb, Shimol va Janub o‘rtasidagi muhim savdo yo‘llari chorrahasida joylashgani uchun yalpi ichki mahsuloti 2,4 trillion AQSH dollaridan oshdi. Shu bois, transport bog‘liqligi va iqtisodiy integratsiya masalalari Tashkilot kun tartibida markaziy o‘rinni egallaydi.

Asosiy yo‘nalishlardan biri Transkaspiy xalqaro transport marshruti, ya’ni O‘rta koridorni rivojlantirish bo‘lib qolmoqda. Hozirgi sharoitda uning ahamiyati yanada ortdi. Global logistikadagi o‘zgarishlar va ayrim mintaqalardagi beqarorlik Osiyo va Yevropa o‘rtasidagi ishonchli hamda diversifikatsiya qilingan marshrutlarga bo‘lgan talabni kuchaytirmoqda.

Bugun O‘rta koridor shunchaki muqobil yo‘nalish emas. Amalda Osiyo va Yevropa o‘rtasida yangi barqaror transport arxitekturasi shakllanyapti.

Natijalar allaqachon namoyon bo‘lmoqda. 2025-yilda O‘rta koridor orqali yuk tashish hajmi 62 foizga oshib, 2023-yildagi 2,7 million tonnadan 4,7 million tonnaga yetdi. Ko‘rilayotgan choralar 2030-yilgacha uning o‘tkazuvchanlik qobiliyatini yiliga 10 million tonnagacha oshirish imkonini beradi.

So‘nggi yillarda TDTga a’zo davlatlar transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish, Kaspiy dengizi portlari quvvatini kengaytirish, temir yo‘l tarmoqlari va multimodal tashuvlarni rivojlantirishga faol investitsiya kiritmoqda. “Boku — Tbilisi — Kars” temir yo‘li bugunning o‘zida samarali misol bo‘lib, tranzit oqimini sezilarli darajada oshirdi va yuk yetkazib berish muddatini qisqartirdi.

“Xitoy — Qirg‘iziston — O‘zbekiston” temir yo‘li loyihasi ham alohida ahamiyatga ega. U O‘rta koridorga to‘g‘ridan to‘g‘ri ulanishni ta’minlab, savdo va mintaqaviy integratsiya uchun yangi imkoniyatlar ochadi. Zangezur koridorini rivojlantirish va “Kars — Igdir — Araliq — Diluju” temir yo‘l liniyasi qurilishi ham qo‘shimcha turtki bermoqda.

Biroq infratuzilma ishning faqat bir qismi. Tashuv jarayonlarini soddalashtirish va chegaradan o‘tishni tezlashtirish ham muhim. Shuning uchun TDT doirasida

e-Permit, e-CMR va e-TIR kabi raqamli yechimlar faol joriy etilmoqda. Ular chegara kesib o‘tish jarayonlarini tezlashtirish va ma’muriy to‘siqlarni kamaytirishga xizmat qiladi.

E-Permit tizimi tashkilot doirasida muvaffaqiyatli qo‘llanilmoqda. e-TIRni joriy etish ishlari a’zo davlatlarning bojxona xizmatlari bilan yaqin hamkorlikda olib borilmoqda. E-CMR bo‘yicha ham sezilarli yutuqlarga erishildi. Ozarbayjon va Turkiya pilot loyihalarni amalga oshirmoqda, Bishkekda imzolangan Anglashuv memorandumi esa mazkur mexanizmni kengaytirish uchun mustahkam asos yaratdi.

Transport yo‘nalishi bilan bir qatorda investitsiya va iqtisodiy hamkorlik ham muhim ahamiyatga ega. Bu borada asosiy vositalardan biri kapitali 600 million AQSH dollarini tashkil etuvchi Turkiy investitsiya jamg‘armasi bo‘ldi. Uning vazifasi o‘zaro investitsiyalarni qo‘llab-quvvatlash, tadbirkorlikni rivojlantirish, innovatsiyalarni rag‘batlantirish va ayniqsa, kichik hamda o‘rta biznes sohasidagi qo‘shma loyihalarni moliyalashtirishdan iborat.

Shu bilan birga, Turkiy davlatlar savdo-sanoat palatalari ittifoqi orqali biznes doiralari o‘rtasidagi hamkorlik kuchaymoqda. Biz bu tuzilmani yanada samarali platformaga aylantirish uchun institutsional jihatdan rivojlantirish ustida ishlayapmiz.

O‘tgan yili tashkil etilgan “Turkic Investment Promotion Network” — Turkiy investitsiyalarni rag‘batlantirish tarmog‘i ham muhim yangi mexanizmga aylandi. U investitsiyaviy hamkorlik, innovatsiyalar va barqaror iqtisodiy o‘sishni rivojlantirishga qaratilgan.

TDT moliyaviy sohadagi hamkorlikni ham kengaytirmoqda. O‘tgan yili TDT Markaziy banklari kengashi va Turkiy “yashil” moliya kengashining dastlabki yig‘ilishlari bo‘lib o‘tdi. Bu platformalar moliyaviy texnologiyalar, to‘lov tizimlari, kapital bozorlari va barqaror iqtisodiyot sohalarida muvofiqlashuv uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda.

> **“ TA’LIM SOHASIDAGI ALOQALAR HAM MUHIM AHAMIYATGA EGA. BU BORADA 170 DAN ORTIQ OLIY TA’LIM MUASSASASINI BIRLASHTIRGAN TURKIY UNIVERSITETLAR ITTIFOQI — TURKUNIB MUHIM O‘RIN TUTADI. O‘ZBEKISTONNING 2025-2026-YILLARDA ITTIFOQQA SAMARALI RAISLIK QILAYOTGANINI ALOHIDA TA’KIDLASH LOZIM.**

Moliyaviy razvedka va monopoliyaga qarshi tuzilmalar o‘rtasidagi hamkorlik ham rivojlantirilmoqda. Bu iqtisodiy muhitning shaffofligi va barqarorligini mustahkamlaydi.

Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. Bishkek sammiti doirasida Raqamli iqtisodiyot bo‘yicha sheriklik kelishuvining imzolanishi elektron tijoratni rivojlantirish va mamlakatlarimiz o‘rtasida raqamli tranzaksiyalarga bo‘lgan ishonchni mustahkamlash yo‘lida muhim qadam bo‘ldi.

Mazkur tashabbuslarning barchasi bitta umumiy maqsadga qaratilgan — turkiy makonni yanada jipslashgan, raqobatbardosh va iqtisodiy jihatdan barqaror hududga aylantirish. Bugun biz TDT doirasidagi hamkorlik sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarilayotganini ko‘rib turibmiz

— Turkiston sammitining markaziy mavzularidan biri sun’iy intellekt va raqamli rivojlanish deb e’lon qilindi. Sizningcha, raqamlashtirish turkiy makon integratsiyasining yangi drayveriga aylanishi mumkinmi?

— Ha, raqamlashtirish haqiqatan turkiy makon integratsiyasining asosiy drayverlaridan biriga aylanishi mumkin. Bugun raqamli texnologiyalar deyarli barcha sohalarga kirib borgan, shuning uchun TDT uchun bu kelajak kun tartibi emas, balki bugungi real voqelikdir.

Shu bois, Turkistondagi bo‘lajak sammit mavzusi juda dolzarb. Biz raqamli transformatsiyani iqtisodiyotlarimiz raqobatbardoshligini oshirish, innovatsiyalarni rivojlantirish va a’zo davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni mustahkamlash vositasi sifatida ko‘rmoqdamiz.

Bugunning o‘zidayoq TDT doirasida raqamli infratuzilmani rivojlantirish, zamonaviy texnologik yechimlarni joriy etish va mamlakatlar o‘rtasida raqamli hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan loyihalar amalga oshirilmoqda.

Sun’iy intellekt, texnologiya almashinuvi, startap-ekotizimlarni rivojlantirish va malakali kadrlar tayyorlash alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada TDT davlatlarida jiddiy inson kapitali, ta’limiy va texnologik salohiyat mavjud.

Eng muhimi, raqamlashtirish mamlakatlarimiz jamiyatlari o‘rtasidagi masofani qisqartirishga yordam bermoqda. Yoshlar raqamli muhit orqali tobora faol muloqot qilmoqda va aynan shu muhitda hamkorlikning yangi makoni shakllanmoqda.

Agar mavjud imkoniyatlarni samarali birlashtira olsak, raqamlashtirish yaqin yillarda turkiy makon integratsiyasining eng kuchli va uzoq muddatli drayverlaridan biriga aylanishi mumkin.

— TDT gumanitar hamkorlik yo‘nalishini ham faol kengaytirmoqda. Ayniqsa, yoshlar o‘rtasida umumiy madaniy va ta’limiy makon qanday shakllantirilmoqda va yagona axborot muhitni yaratish bo‘yicha yangi qo‘shma loyihalar kutish mumkinmi?

— Bugun TDT gumanitar hamkorlik yo‘nalishini tobora kuchaytirmoqda. Bu ishlarning markazida amaliyotga yo‘naltirilgan va muntazam tus olgan yoshlar hamda ta’lim tashabbuslari turibdi. Jumladan, Cho‘lponota shahrida bo‘lib o‘tgan III Turkiy universiadada 500 nafardan ortiq ishtirokchi qatnashdi. Bu yoshlarning faol jalb etilayotganini ko‘rsatadi.

Shuningdek, Olmaotada Turkiy dunyo yoshlar markazining ishga tushirilishi, Toshkentda Diaspora yoshlari forumi, Gabalada Sport volontyorlari forumi va Istanbulda Turkiy Qizil tarmoq lageri kabi tashabbuslar ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bu yo‘nalishni davom ettirgan holda joriy yilda Xivani Turkiy dunyo yoshlar poytaxti deb e’lon qilish rejalashtirilgan. Bundan tashqari, O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan O‘zbekistonda Turkiy dunyo kreativ yoshlar markazini tashkil etish ishlari olib borilmoqda. Bularning barchasi mamlakatlarimiz yoshlari o‘rtasida jonli hamkorlik tarmog‘ini yaratmoqda.

Ta’lim sohasidagi aloqalar ham muhim ahamiyatga ega. Bu borada 170 dan ortiq oliy ta’lim muassasasini birlashtirgan Turkiy universitetlar ittifoqi — TURKUNIB muhim o‘rin tutadi. O‘zbekistonning 2025-2026-yillarda ittifoqqa samarali raislik qilayotganini alohida ta’kidlash lozim.

“Orxun” akademik mobillik dasturi ham alohida ahamiyatga ega. U talabalar va o‘qituvchilar almashinuvini ta’minlab, qo‘shma loyihalarni amalga oshirish va umumiy ta’lim makonini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Media va raqamli muhitning roli ham ortib bormoqda. Bugun TDT mamlakatlari yoshlari onlayn platformalar, ijtimoiy tarmoqlar va qo‘shma axborot loyihalari orqali tobora faol muloqot qilmoqda. Bu esa turkiy dunyoning umumiy axborot makoni shakllanishiga xizmat qilmoqda.

Yoshlar, universitetlar, madaniy va gumanitar institutlar o‘rtasidagi aloqalar kengaygan sari turkiy dunyoning yagona madaniy va axborot makoni ham bosqichma-bosqich shakllanib bormoqda. Mazkur jarayon tabiiy va izchil tarzda — aniq loyihalar, institutsional hamkorlik va insonlar o‘rtasidagi jonli muloqot orqali rivojlanmoqda.

Eng muhimi, bu mustahkam tarixiy-madaniy asosga tayanadi. Masalan, O‘zbekiston turkiy sivilizatsiya va boy tarixiy merosning asosiy beshiklaridan biri hisoblanadi. Samarqand, Buxoro, Xiva va Andijon kabi qadimiy shaharlar nafaqat tarixiy markazlar, balki turkiy dunyoning zamonaviy madaniy makonining muhim qismi hamdir.

Shu ma’noda, 2026-yilda Andijonning Turkiy dunyo madaniy poytaxti deb e’lon qilinishi ham ramziy ahamiyatga ega. Andijon boy tarixiy meros va zamonaviy taraqqiyot ruhini uyg‘unlashtirgan qadimiy shahar sifatida alohida o‘rin tutadi. Shu munosabat bilan shu yil iyun oyi o‘rtalarida Andijon shahrida tegishli tadbirlar o‘tkazilishi rejalashtirilgan.

Andijonning yana bir muhim jihati u buyuk turkiy sarkarda, davlat arbobi va mashhur shoir Zahiriddin Muhammad Boburning vatani ekanidir. Bobur shaxsi yoshlarimiz uchun har tomonlama barkamol avlod timsoli sifatida ilhom manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Shu tariqa TDT doirasidagi gumanitar hamkorlik ikki yo‘nalishda — zamonaviy amaliy loyihalar va umumiy tarixiy-madaniy meros asosida rivojlanmoqda. Ular birgalikda turkiy dunyo mamlakatlari va xalqlarining yanada yaqinlashuvi uchun mustahkam zamin yaratmoqda.

“Dunyo” AA
Istanbul shahri

O‘ZBEKISTON — TDT: KENG KO‘LAMLI HAMKORLIKNI MUSTAHKAMLASH VA BARQAROR TARAQQIYOT SARI

Boshlanishi 1-betda

Tashkilot faoliyatining asosiy maqsadi a’zo davlatlar — Ozarbayjon, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkiya va O‘zbekiston o‘rtasida har tomonlama hamkorlikni rivojlantirishdan iborat. Ustuvor vazifalar qatoriga o‘zaro ishonch va yaxshi qo‘shnichilikni mustahkamlash, tashqi siyosiy pozitsiyalarni muvofiqlashtirish, shuningdek, savdo-iqtisodiy, transport, energetika va madaniy-gumanitar sohalarda hamkorlikni kengaytirish kiradi. Savdo va investitsiyalar uchun qulay sharoit yaratish, ilmiy-texnik hamkorlikni rivojlantirish va mintaqa aholisi turmush darajasini oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

TDTning tashkiliy tuzilmasi ko‘p tomonlama hamkorlikni muvofiqlashtiruvchi qator muhim institutlarni o‘z ichiga oladi. Davlat rahbarlari kengashi oliy organ hisoblanib, u rivojlanishning strategik yo‘nalishlarini belgilaydi va muntazam ravishda yig‘ilishlar o‘tkazadi. Maslahatchi vazifasini Turkiy davlatlar tashkiloti Oqsoqollar kengashi bajaradi. U a’zo davlatlarning nufuzli vakillarini birlashtirib, turkiy dunyoda o‘zaro anglashuv va ishonch an’analarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

O‘zbekiston avvaldan turkiy davlatlarni yaqinlashtirish va mazkur formatda ko‘p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish jarayonlarining faol ishtirokchisi bo‘lib kelgan. Yangi burilish nuqtasi sifatida Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 3-sentabr kuni Qirg‘izistonning Cho‘lponota shahrida turkiy tilli davlatlar VI sammitida faxriy mehmon sifatida ishtirok etganini qayd etish mumkin. Bu qadam tashkilot rivojiga yangi turtki berdi. 2019-yilda respublika Naxichevan bitimini ratifikatsiya qilib, TDT faoliyatidagi to‘laqonli ishtirokini rasman mustahkamladi.

O‘zbekistonning qo‘shilishi bilan tashkilot faoliyati va a’zo davlatlar o‘rtasidagi hamkorlik kun tartibi sezilarli darajada faollashdi. 2019-2025-yillarda o‘tgan sammitlarda O‘zbekiston Prezidenti tomonidan ko‘p qirrali hamkorlikni chuqurlashtirishga qaratilgan 116 ta tashabbus ilgari surildi. Hozirgi kunga qadar ularning 64 tasi amalga oshirildi, yana bir qator loyihalar yakuniy bosqichda turibdi. Bu ko‘rsatkichlar O‘zbekistonning turkiy makondagi integratsiya jarayonlarini rivojlantirishga nisbatan tizimli va amaliy yondashuvini ko‘rsatadi.

Amalga oshirilgan tashabbuslar keng qamrovli yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi. Iqtisodiyot va transport sohasida logistika jarayonlarini soddalashtirish hamda mintaqaning tranzit salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan “e-Permit”, “raqamli TIR” va “yashil yo‘lak” tizimlarini joriy etish alohida ahamiyat kasb etdi. Turizm sohasida Qo‘qon shahrining turkiy dunyo turizm poytaxti deb e’lon qilinishi va ziyorat turizmini rivojlantirishga xizmat qiluvchi “Tabarruk ziyorat” loyihasi amalga oshirilishi muhim voqealardan bo‘ldi.

Yoshlar siyosati, ilm-fan va ta’lim sohalarida hamkorlik faol rivojlanmoqda. Yosh yetakchilar forumlari, xalqaro konferensiyalar va Turkiy universitetlar uyushmasi doirasida tadbirlar o‘tkazilmoqda. Shu bilan birga, innovatsion rivojlanishga katta e’tibor qaratilmoqda — IT forumlar, startap maydonlari va sohaviy idoralar uchrashuvlari, jumladan, kosmik sohada va mudofaa sanoatidagi hamkorlik tashkil etilmoqda. Bu ishtirokchi davlatlarning yagona texnologik makonni shakllantirishga intilishini aks ettiradi.

Turkiy davlatlar tashkilotini rivojlantirishda 2022-yil Samarqand sammiti yakunlariga ko‘ra boshlangan O‘zbekiston raisligi alohida ahamiyatga ega. Ayni davrda mamlakat nafaqat amaliy hamkorlikni faollashtirdi, balki tashkilot faoliyatiga institutsional yangiliklar ham kiritdi. Xususan, ilk bor raislik davri uchun kompleks konsepsiya va tadbirlar rejasini ishlab chiqish amaliyoti joriy etildi. Bu hamkorlikka yanada tizimli va izchil tus berish imkonini yaratdi. Raislik doirasida iqtisodiyot va transportdan tortib, ilm-fan, madaniyat va ta’limgacha bo‘lgan asosiy sohalarni qamrab olgan turli darajadagi 100 dan ortiq tadbir o‘tkazildi.

> **“ O‘zbekiston avvaldan turkiy davlatlarni yaqinlashtirish va mazkur formatda ko‘p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish jarayonlarining faol ishtirokchisi bo‘lib kelgan. Yangi burilish nuqtasi sifatida Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 3-sentabr kuni Qirg‘izistonning Cho‘lponota shahrida turkiy tilli davlatlar VI sammitida faxriy mehmon sifatida ishtirok etganini qayd etish mumkin. Bu qadam tashkilot rivojiga yangi turtki berdi.**

Bugungi kunda TDT kun tartibi barcha ishtirokchi davlatlar manfaatlarini hisobga olgan holda shakllantirilmoqda va har bir davlat integratsiya jarayonlari rivojiga o‘z hissasini qo‘shmoqda.

TDT doirasidagi iqtisodiy hamkorlik barqaror ijobiy o‘sishni namoyon etmoqda. So‘nggi yillar yakunlariga ko‘ra, O‘zbekistonning tashkilotga a’zo davlatlar bilan tovar ayirboshlash hajmi izchil oshib bormoqda va 2025-yilda 10,8 milliard AQSH dollaridan oshdi. Qozog‘iston va Turkiya mamlakatimizning asosiy savdo sheriklari bo‘lib qolmoqda. Boshqa a’zo davlatlar bilan ham o‘zaro savdo hajmi o‘sishi kuzatilmoqda. Bu esa iqtisodiy integratsiya va mintaqadagi kooperatsiya aloqalari chuqurlashayotganini ko‘rsatadi.

Shu nuqtayi nazardan, Turkiy davlatlar tashkilotining Turkiston shahrida bo‘lib o‘tadigan navbatdagi sammiti ko‘p tomonlama hamkorlikning keyingi yo‘nalishlarini muhokama qilish va yangi qo‘shma tashabbuslarni ishlab chiqish uchun muhim maydon bo‘ladi. Sammit mavzusidan kelib chiqqan holda raqamli transformatsiya, qo‘shma innovatsion ekotizimlarni rivojlantirish, sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish, raqamli infratuzilma sohasidagi hamkorlikni mustahkamlash hamda zamonaviy yuqori malakali kadrlar tayyorlash masalalariga alohida e’tibor qaratilishi kutilmoqda.

Shu bilan birga, savdo-iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash, transport-logistika o‘zaro bog‘liqligini rivojlantirish, investitsiyaviy hamkorlikni kengaytirish, shuningdek, turkiy makon doirasida qo‘shma yuqori texnologiyali va innovatsion loyihalarni ilgari surish masalalari ham muhokama qilinishi rejalashtirilgan.

Ekspertlar fikricha, O‘zbekiston turkiy makonda amaliy hamkorlikni chuqurlashtirish va o‘zaro ishonchni mustahkamlash tarafdori sifatida tashkilotning umumiy maqsadlarini amalga oshirishga bundan buyon ham faol ko‘maklashadi. Kutilayotgan kelishuv va tashabbuslar integratsiya jarayonlariga yangi sur’at bag‘ishlashi, mintaqaning barqaror rivojlanishiga xizmat qilishi hamda Turkiy davlatlar tashkilotining xalqaro nufuzini yanada oshirishi kutilmoqda.

“Dunyo” AA

15-may — Xalqaro oila kuni

QADRIYATLAR QO‘RG‘ONI, JAMIYAT VA DAVLATNING KUCH-QUDRATI MANBAYI

“Oilamiz – kelajagimiz” oyligi o‘tkazilmoqda

Zulayho MAHKAMOVA,
Bosh vazir o‘rinbosari — Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi raisi

Boshlanishi 1-betda

Har yili may oyi butun jonajon vatanimiz uchun yana bir yangi ma’no kasb etadi: 15-may — xalqaro oila kuni. Aynan shu sana munosabati bilan mamlakatimizda “Oilamiz — kelajagimiz” oyligi e’lon qilingan. Oylikning maqsadi chuqur, mohiyati keng: farovon va barqaror oilalarning tajribasini ommalashtirish, yoshlarning oilaviy hayotga mas’uliyatini oshirish hamda oila institutini yanada yuksaltirish.

Shu ma’noda, Vazirlar Mahkamasining tegishli majlisi bayoni bilan belgilangan ushbu oylik oila institutiga strategik yondashuv o‘laroq, O‘zbekistonning yangilangan Konstitutsiyasi, amaldagi qonunchilik va ijtimoiy siyosatni ham o‘zida mujassam etadi.

O‘zgarish va islohotlar, olinayotgan baland marralar bugun 10 milliondan ortiq oilaning barida o‘z aksini ko‘rsatmoqda. Yil sayin oilaviy korxonalar soni ortayotgani, tadbirkor, omilkor oilalar safi kengayayotgani, dunyoning manaman degan yetakchi dorilfununlarida o‘qib, ilm urfonida cho‘qqilarni zabt etayotgan ma’rifati yuksak farzandlarimiz ziyoli oilalarda voyaga yetayotgani fikrimizni yana bir karra dalillaydi.

“Oilamiz — kelajagimiz” oyligi doirasida ibratli oilalarni izlab topish, rag‘batlantirish hamda boy hayotiy tajribasini ommalashtirish maqsad qilingan. Uzoq yillar davomida ahil-inoq yashab, farzandlarini vatanparvar va ma’rifatli insonlar etib tarbiyalagan oilalar — davlatning eng katta boyligi. Ularning hayot yo‘li yosh avlodga yo‘lchiroq vazifasini o‘taydi.

Shu bois, “Yangi O‘zbekistonning ibratli oilasi” ko‘rik-tanlovi hududlarda katta ishtiyoq va shukuh bilan o‘tkazilmoqda. Tanlov kitobxonlik, hunarmandlik, tadbirkorlik, sog‘lom turmush tarzi, tomorqadan unumli foydalanish, eng muhimi, farzand tarbiyasiga mas’uliyat kabi yo‘nalishlarni qamrab oladi. Bu yo‘nalishlarning har birida yurtimiz rivoji uchun dolzarb hisoblagan ijtimoiy masalalar o‘rin olgan. Tanlov doirasida oilalarning hayotiy tajribasi, farzand tarbiyasiga yondashuvi, oiladagi ma’naviy muhit, o‘zaro hurmat va mehr-oqibat an’analariga e’tibor qaratiladi.

Harbiy xizmatchilar oilalarida sog‘lom ma’naviy muhit, vatanparvarlik, sadoqat va oilaviy birdamlikni keng targ‘ib qilish maqsadida “Yangi O‘zbekistonning ibratli harbiy oilalari” ko‘rik-tanlovini tashkil etish belgilangan. Ushbu tashabbus vatan himoyachilari oilalaridagi fidoyilik, sabr-matonat va ibratli tarbiya muhitini keng jamoatchilikka yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Oylik doirasida sadoqat, o‘zaro hurmat, farzand tarbiyasida mas’uliyat, mahalla va jamoat ishlarida faollik, milliy qadriyatlarga sodiqlik kabi fazilatlari bilan namuna bo‘layotgan oilalarni “Ibratli oila” ko‘krak nishoni bilan taqdirlash marosimini yuqori saviyada tashkil etish nazarda tutilgan.

O‘tgan yili ko‘krak nishoniga munosib ko‘rilgan ikki mingta fayzli xonadonning darvozasini ushbu nishon bezab turibdi. Ibratli oilalar ko‘chasidan o‘tib-qaytgan kishi borki, nishonga havas bilan qaraydi, o‘zining oilasi ham bu sharafga loyiq bo‘lishi uchun yangi qadamlar tashlaydi. Joriy yilda ham ikki mingta oila mazkur yuksak nishon bilan taqdirlanadi.

Bugun oilani asrab-avaylovchi, barcha kattayu kichikni o‘z atrofida birlashtiruvchi ayollar mehnati ham munosib baholanmoqda. Joriy yilda ta’lim, sog‘liqni saqlash, ilm-fan, madaniyat, tadbirkorlik va ijtimoiy sohalarda fidoyilik bilan xizmat qilgan 351 xotin-qizga “Mo‘tabar ayol” ko‘krak nishoni topshirildi. Markaziy shaharlardan tortib, chekka qishloq va ovullargacha — oila va jamiyat barqarorligiga munosib hissa qo‘shayotgan bu fidoyi ayollar safida mahallaning vijdoni, oilalarning totuvlik timsoli bo‘lgan opa-singillarimiz bor. Prezidentimizning “Ma’rifatli jamiyatni ma’rifatli onalarsiz qurib bo‘lmaydi!” degan g‘oyasi aynan shu nishonning mohiyatida mujassam. Mukofotlangan har bir ayol siymosida oilaning, mahallaning, yurtning iftixorini ko‘rgandek bo‘lamiz.

Endigina tetapoya bo‘lib kelayotgan, oldiga ulkan marralarni qo‘yib kechagina yangi hayot boshlagan yosh oilalar chetda qolgan emas. Bunday oilalarni qo‘llab-quvvatlash, ularda sog‘lom oilaviy muhit, mas’uliyatli ota-onalik, o‘zaro ishonch va mehr-oqibat tamoyillarini mustahkamlash maqsadida “Eng namunali yosh oila” tanlovi o‘tkaziladi. Bu tanlov esa munosiblarni jamiyatda faol, ma’naviyatli, vatanparvar va farzand tarbiyasiga mas’uliyat bilan yondashuvchi oila sifatida namoyon etishga xizmat qiladi.

Har qanday islohotlarning kishilar hayot tarziga ta’siri, yutuqlari, kamchiliklari va istiqbolini baholaydigan o‘z barometrlari bo‘ladi. Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti bilan hamkorlikda “Yangi O‘zbekistonda farovon oila modeli: milliy tajriba, ilmiy tahlil va innovatsion yondashuvlar” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o‘tkaziladi. Anjumanda oila institutini mustahkamlash, zamonaviy oila modelini shakllantirish, milliy qadriyatlar va ilmiy yondashuvlar uyg‘unligini ta’minlash, shuningdek,

oilaviy munosabatlarda barqarorlik va farovonlikni oshirish masalalari muhokama qilinadi.

Bugun zamonaviy jamiyatlarda oilaviy ajrashishlar, yoshlar orasida nikohga loqaydlik, farzand tarbiyasidagi bo‘shliqlar kabi masalalar har qachongidan ham dolzarb. Chunki ular mintaqaviy emas, global muammolarga aylanib ulgurdi. Ularni bartaraf etishda milliy va jahon tajribasi uyg‘unlashuvi shart.

Anjuman aynan shunday platforma vazifasini o‘taydi: olim va amaliyotchilar, siyosatchi va tarbiyachilar, mahalla xotin-qizlar faollari va nuroniylar bir davra bo‘lib, mavjud holatni tahlil qiladi, eng muqobil takliflarni ilgari suradi.

“Saodatli oilalar sayli” kabi sayillarda bir necha avlod vakillari birga istiqomat qilayotgan xonadonlar, ko‘p yillik oilaviy hayot tajribasiga ega nuroniylar, ibratli kelin-kuyovlar, yosh oilalar hamda mahalla faollari ishtirokida samimiy muloqotlar tashkil etiladi. Ularda oilaviy totuvlik, sabr-qanoat, o‘zaro tushunish, farzand tarbiyasi, kelin-qaynona munosabatlari, oilada ma’naviy muhitni sog‘lom saqlash kabi mavzular hayotiy misollar asosida yoritiladi.

Tadbirlar doirasida “Oila — muqaddas qo‘rg‘on”, “Oilaviy an’analar — ma’naviy meros”, “Ota va ona — oila tayanchi”, “Farzand tarbiyasi — kelajak poydevori”, “Oilada sog‘lom muhit va o‘zaro hurmat” kabi mavzularda uchrashuvlar, davra suhbatlari va ma’naviy-ma’rifiy muloqotlar o‘tkazilishi muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, ta’lim muassasalarida yoshlar bilan oilaga tayyorgarlik, mas’uliyatli nikoh, oilada o‘zaro ishonch va hurmat, ota-onalik burchi, milliy qadriyatlar va zamonaviy hayot uyg‘unligi haqida ochiq muloqotlar tashkil etilishi maqsadga muvofiq.

Mahallalarda esa “Ahil oila kunlari” doirasida oilaviy ajrashish bilan bog‘liq muammolarni barvaqt aniqlash, nizoli oilalar bilan individual ishlash, huquqiy, psixologik, tibbiy va pedagogik maslahatlar berish, yosh oilalarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan amaliy tadbirlar o‘tkaziladi. Bu — profilaktik yondashuv. Oiladagi munosabatlar darz ketishidan oldin erta aniqlash va muqobil yechimlarni topish oqil va odil yo‘ldir.

Xotin-qizlar va onalarning ma’naviy-ma’rifiy faolligini oshirish maqsad qilingan “Kitobxon onalar kuni” loyihasi doirasida kitobxonlik tadbirlari, oilaviy mutolaa kechalari, onalar va qizlar ishtirokida adabiy uchrashuvlar tashkil etiladi. Ota-ona va farzandlarni bir kitob atrofida jamlaydigan bunday tadbirlar oilada ma’naviy muhitni boyitishga xizmat qiladi. Zero, kitobxon oilada ma’rifatli farzandlar voyaga yetadi. Ma’rifatli avlod esa millatning istiqboli, ertasidir.

Oilaviy munosabatlarni sog‘lomlashtirishga qaratilgan “Oila kvesti”, “Sevgan ovqatni birgalikda tayyorlash”, “Oila davrasida ko‘ramiz”, “Borligingiz uchun rahmat!” kabi ma’rifiy tadbirlar ham alohida ahamiyatga ega. Ushbu tashabbuslar oila a’zolari o‘rtasida mehr-muhabbatni kuchaytirish, bir-birini qadrlash, ota-onaga hurmat va farzandlarga e’tiborni yanada oshirishga xizmat qiladi.

Sog‘lom oila — sog‘lom jamiyat asosi. Qayd etish kerak, ayni kunlarda mamlakatimiz bo‘ylab o‘tkazilayotgan “Ayollar sport olimpiadasi”, bir-biridan qiziqarli sport tadbirlari, oilaviy yurishlar, marafonlar, stol tennisi, shaxmat, shashka va yengil atletika bo‘yicha musobaqalar o‘z atrofida yuzlab, minglab xotin-qizlarni birlashtira oldi. Momolarimiz topib aytgan: sog‘lom onadan sog‘lom farzand dunyoga keladi. Demakki, har qanday taraqqiyot avvalida tan sihatligi ustuvor. Shu bois, ushbu musobaqalar onalar, oilalar o‘rtasida ham sportni ommalashtirish, muntazamlikni ta’minlash maqsadida tashkil etilmoqda.

Bu ezgu tashabbuslar poydevorini mustahkamlash va oila institutini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha davlat siyosatining uzoq muddatli yo‘nalishlarini belgilash maqsadida “2026-2036-yillarda O‘zbekistonda oila farovonligi” konsepsiyasi loyihasi ishlab chiqildi. Mazkur loyihani oilani jamiyatning birlamchi bo‘g‘ini, qadriyatlar, ijtimoiy normalar va inson kapitalini shakllantiruvchi bosh institut sifatida e’tirof etuvchi, davlatimizning istiqboldagi o‘n yilga mo‘ljallangan strategik xaritasi, deyish mumkin.

Konsepsiyaning mohiyati teran va keng qamrovli. Unga ko‘ra, 2036-yilga borib, jamiyatimizda nikohga kirishish bo‘yicha madaniyat qaror topishi, ajrimlar koeffitsiyenti barqaror pasayib, oilaviy birdamlik yanada mustahkamlanishi ko‘zda tutilmoqda. Oiladagi zo‘ravonlikning har qanday ko‘rinishining tizimli oldi olinib, jabrlanuvchilar uchun manzilli, tezkor va o‘z vaqtidagi himoya mexanizmi to‘liq ishga tushiriladi. Oila tarkibidan qat’i nazar — to‘liqmi yoki noto‘liq — bolalar xavfsiz va rivojlantiruvchi muhitda voyaga yetadi.

Oilalar barqaror daromad manbalariga ega bo‘lib, ehtiyojmand xonadonlarga ko‘rsatilayotgan yordam ularni iqtisodiy jihatdan mustaqil subyektga aylantirishga yo‘naltiriladi. Har bir oila a’zosiga tibbiy va psixologik yordam olish imkoniyati yaratiladi, og‘ir hayotiy vaziyatga tushib qolganlar esa o‘z mahallasida yoxud eng yaqin xizmat nuqtasida kompleks ko‘mak oladi.

Yana bir muhim jihat shundaki, konsepsiyada bolalar farovonligi, xavfsizligi, jismoniy va intellektual kamoloti ustuvor. Zamonning yangi global masalalari — mehnat migratsiyasi, raqamli makondagi xatarlar, raqamli zo‘ravonlik, tanishuv platformalarining tartibsizligi kabi dolzarb masalalarga ham aniq yechimlar taklif etilmoqda.

Jumladan, transchegaraviy huquqiy va psixologik ko‘mak ko‘rsatuvchi ko‘p tarmoqli “ishonch telefoni” hamda onlayn konsultatsiya tizimi, masofaviy mediatsiya xizmatlari, shuningdek, “Oilaga do‘stona ish beruvchi” standarti asosida shaxsiy hayot va mehnat muvozanatini himoya qilish mexanizmlari bosqichma-bosqich joriy etiladi.

Ayni vaqtda konsepsiya oilani iqtisodiy yoki ijtimoiy birlik emas, avvalo, xalqimizning ma’naviy-axloqiy, madaniy va tarixiy qadriyatlarini asrab-avaylovchi muqaddas dargoh sifatida e’tirof etadi. Zotan, farovon oila moddiy barqaror bo‘lishi bilan birga vatanga muhabbat, avlodlar o‘rtasidagi o‘zaro hurmat, ona tiliga sadoqat, milliy o‘zlikni anglash kabi fazilatlarni farzandlariga tabiiy singdira oladigan maskandir. Aynan oila qadriyatlar avloddan avlodga uzluksiz o‘tkaziladigan, o‘rni boshqa biror institut bilan to‘ldirib bo‘lmaydigan yagona makondir.

“Farovon oila” modeli muammolardan mutlaqo xoli ideal tuzilmani emas, balki yuzaga kelayotgan ijtimoiy, iqtisodiy va psixologik qiyinchiliklarni mustaqil yengib o‘ta oladigan, yetarli ichki resurslar va tizimli qo‘llab-quvvatlovga tayangan oilani ko‘zda tutadi. Davlat bu o‘rinda oila o‘rnini bosmaydi, uning ichki mas’uliyatini zimmasiga olmaydi, balki oila o‘z qadriyatlarini mustahkamlab, keyingi avlodlarga munosib meros qoldirishi uchun zarur shart-sharoitni yaratib beradi. Muhimi, ushbu konsepsiya BMTning tegishli konvensiyalari, Barqaror rivojlanish maqsadlari va xalqaro mehnat standartlari bilan uyg‘un tarzda amalga oshiriladi. Bu esa yurtimiz oila siyosatining ham milliy, qolaversa, global talablar darajasida ekanini yana bir karra tasdiqlaydi.

Bugun yurtimizdagi har bir ijtimoiy-siyosiy islohot markazida inson va uning qadri turibdi. Inson oilada ulg‘ayadi, oilada kamol topadi. Oila qancha mustahkam bo‘lsa, jamiyat shuncha barqaror bo‘ladi. Oilamiz bizning ertamiz, kelajagimiz. Kelajak bugundan boshlanar ekan, demak, bugun oilalar baxtli, saodatli yashashi kerak. O‘z oilamizni asrash va mustahkamlash esa har birimiz uchun ham mas’uliyatli, ham sharafli burchdir.

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

Anjuman

OSIYO AYOLLARINING YETAKCHILIGI VA ILMIY SALOHIYATINI BIRLASHTIRUVCHI MUHIM PLATFORMA

Buxoro shahrida “Ayollarga investitsiya — barqaror o‘sish asosi: xotin-qizlarning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik imkoniyatlarini kengaytirish” mavzusidagi Osiyo xotin-qizlarining II forumi qizg‘in davom etmoqda.

Mintaqa mamlakatlari yetakchi ayollarining bunyodkorlik salohiyatini ro‘yobga chiqarish, davlat va jamiyat boshqaruvi hamda iqtisodiyotdagi ishtirokini yanada kengaytirish borasida tajriba almashish maqsadida tashkil etilgan anjumanda nufuzli xalqaro tashkilotlar, jumladan, BMT va uning ixtisoslashgan muassasalari vakillari, Osiyo mamlakatlari parlamentlari senator va deputatlari, mintaqaning ijtimoiy-siyosiy faol xotin-qizlari ishtirok etmoqda.

Prezidentimiz forum ishtirokchilariga murojaat yo‘llagani xalqaro anjuman nufuzini yanada oshirdi.

Forum avvalida O‘zbekiston Prezidenti Administratsiyasi rahbari Saida Mirziyoyeva ushbu murojaatni ishtirokchilarga o‘qib eshittirdi. Tabrikda keyingi yillarda xotin-qizlarning huquq va erkinliklari, manfaatlarini ta’minlash, ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish yangi O‘zbekiston islohotlarining ustuvor yo‘nalishiga aylangani qayd etilgan.

Darhaqiqat, so‘nggi yillarda yurtimizda gender tenglikni ta’minlash borasida mustahkam huquqiy va institutsional poydevor yaratildi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya hamda “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi ayollar huquqlari, onalik va bolalikni himoya qilishning institutsional kafolatlarini mustahkamladi.

Keng ko‘lamli islohotlar natijasida xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi ulushi 35 foizga, tadbirkorlik sohasida 37 foizga, siyosiy partiyalar tarkibida esa 49 foizga yetib, mamlakat bu ko‘rsatkich bo‘yicha xalqaro reytinglarda yetakchilar qatoridan joy oldi. Xususan, Parlamentlararo Ittifoq tomonidan yuritiladigan “Parlamentdagi ayollar” reytingida yurtimiz 193 ta davlat orasida 35-o‘ringa ko‘tarildi.

Osiyo xotin-qizlarining ikkinchi forumi bugungi kunda dunyo miqyosida ham keng e’tibor qaratilayotgan dolzarb masalalardan biri — xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini samarali himoya qilish, maishiy zo‘ravonlikka chek qo‘yish hamda ayollarning jamiyatdagi o‘rni, qadr-qimmatini ko‘tarish borasida yirik muloqot va amaliy hamkorlik maydoniga aylandi.

— Kelajak haqida muloqot aynan tarixiy Buxoroda o‘tkazilayotgani chuqur ramziy

ma’noga ega, — deydi BMT Bosh kotibining maxsus vakili, BMTning Markaziy Osiyo uchun preventiv diplomatiya bo‘yicha mintaqaviy markazi rahbari Kaxa Imnadze. — Zero, Buxoro asrlar davomida ilm-fan, ma’rifat, madaniyatlararo muloqot va diplomatiya markazi bo‘lib kelgan. Bugun esa qadimiy shahar mintaqa ayollarining yetakchiligi, ilmiy salohiyati va hamkorlik tashabbuslarini birlashtiruvchi muhim manzil bo‘lmoqda.

Ushbu forumning birinchisi 2024-yil 13-14-may kunlari Samarqand shahrida o‘tkazilgan edi. Birinchi muloqot juda yaxshi natijalar berib, xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash borasida samarali xalqaro maydonga aylangandi. Shu bois, davlatimiz rahbari 2025-yil 23-sentabrda BMT Bosh Assambleyasining 80-sessiyasida so‘zlagan nutqida Osiyo ayollari forumini muntazam o‘tkazishni va uni doimiy platformaga aylantirishni taklif qilgandi.

Bu yilgi forum avvalgisidan muntazamligi hamda Osiyo qit’asi bo‘yicha qamrovning kengligi bilan ham farqlanadi.

— Forumda mintaqaning yetakchi ayollari gender tenglik, xotin-qizlar huquqlarini ta’minlash hamda ayollar imkoniyatlarini kengaytirish masalalarini muhokama qilish uchun bir maydonda jam bo‘ldi, — deydi BMT-ayollar” tuzilmasining Markaziy Osiyo bo‘yicha muvofiqlashtiruvchi ofisi rahbari Jeren Guven Guresh. — Bu muloqot shunchaki navbatdagi xalqaro uchrashuv emas, balki mintaqada yangi siyosiy tafakkur va mintaqaviy hamjihatlikning amaliy ifodasi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ozarbayjonning qo‘shilishi esa uning geosiyosiy va gumanitar ahamiyatini yanada oshirdi. Mazkur mintaqa davlatlari nafaqat iqtisodiy va transport sohalarida, balki inson kapitali va ijtimoiy adolat masalalarida ham yagona pozitsiya shakllantira boshlaganining muhim belgisidir. Umumiy muammolarni aniqlash ularga qarshi birgalikda harakat qilish mexanizmini yaratdi.

Haqiqatan, bugungi kunda Markaziy Osiyo davlatlari ko‘p jabhada hamfikr, hamkor. Jumladan, ayollarga nisbatan zo‘ravonlikka qarshi kurashish, xotin-qizlarning iqtisodiy faolligini oshirish va siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonidagi ishtirokini kengaytirish ham mintaqa kun tartibida ustuvor yo‘nalishga aylanmoqda. Bu esa yangi Markaziy Osiyoning mustaqil siyosiy subyekt sifatida namoyon bo‘lishidir.

— Forum doirasida erishiladigan kelishuv har bir mamlakatda xotin-qizlar turmush tarzi va himoyasi, ijtimoiy faolligini oshirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lishi shubhasiz, — deydi Oliy Majlis Senati a’zosi Pokiza Ahmadjonova. — O‘ylaymanki, ushbu forum Osiyo qit’asi, ayniqsa, mintaqamizda turli sohalarning yanada jadal taraqqiy etishiga zamin yaratadi. Boisi, bir necha sessiyalarga bo‘linib davom etayotgan anjumanda turli sohalar — “yashil iqtisodiyot”, sun’iy intellektdan tortib, ilm-fan, jamoat salomatligi kabi mavzularda fikr va tajriba almashilyapti, bu borada xotin-qizlar faolligini oshirish bo‘yicha zarur to‘xtamlarga kelinmoqda.

Sanjar ESHMURODOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

So‘nggi yillarda kon-metallurgiya sohasida ishlab chiqarishga zamonaviy texnologiyalar joriy etilmoqda. Yangi konlar o‘zlashtirilib, mavjudlari modernizatsiya qilinmoqda. Bu esa nafaqat xomashyoni qazib olish, balki chuqur qayta ishlash orqali tayyor mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

YANGI O‘ZBEKISTON
www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

O‘zbekiston Respublikasi konchilik va metallurgiya sanoati xodimlari kuniga

QAT’IY INTIZOM, TASHKILOTCHILIK VA YUKSAK MAS’ULIYAT

Islohotlar yurtimiz kon-metallurgiya sanoatini ham yuksak bosqichga olib chiqyapti. Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ular asosida ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish orqali mamlakatning iqtisodiy salohiyatini mustahkamlashga zamin yaratilyapti.

Quvondiq SANAQULOV,
“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ boshqaruvi raisi — bosh direktori

Mazkur soha nafaqat sanoat o‘sishini ta’minlamoqda, balki yangi ish o‘rinlari yaratish va aholi turmush farovonligini oshirishda katta ahamiyat kasb etmoqda. Keyingi yillarda kombinatdagi keng ko‘lamli islohotlar, ishlab chiqarish hajmini oshirish va yangi loyihalarni hayotga tatbiq etish jarayonida har bir xodim faollik, tashabbuskorlik va yuksak mas’uliyatni his qilmoqda.

Erishilayotgan yuksak natijalar zamirida, avvalo, mazkur tarmoqqa qaratilayotgan doimiy e’tibor va har tomonlama qo‘llab-quvvatlov muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Bu esa Navoiy kon-metallurgiya kombinati jamoasini fidoyilik, hamjihatlik va yuksak mas’uliyat hissi bilan mehnat qilishga ruhlantirmoqda.

So‘nggi yillarda kon-metallurgiya sohasida ishlab chiqarishga zamonaviy texnologiyalar joriy etilmoqda. Yangi konlar o‘zlashtirilib, mavjudlari modernizatsiya qilinmoqda. Bu esa nafaqat xomashyoni qazib olish, balki chuqur qayta ishlash orqali tayyor mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Navoiy kon-metallurgiya kombinati bu jarayonda yetakchi o‘rinni egallab turibdi. Korxonadagi investitsion loyihalar natijasida ishlab chiqarish hajmi yil sayin oshib bormoqda. Shu bilan birga, sohada energiya samaradorligi va ekologik barqarorlikka alohida e’tibor qaratilmoqda. Atrof-muhitga zararli ta’sirni kamaytirish, chiqindilarni qayta ishlash va “yashil” texnologiyalardan foydalanish bugungi kunning muhim vazifalaridan biri. Kon-metallurgiya sohasidagi yangi bosqich innovatsiyalar, samaradorlik va barqaror rivojlanishga asoslangan davrdir.

Joriy yilning 16-martida Olmaliqda bo‘lib o‘tgan yig‘ilishda davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, mustaqillikning dastlabki yigirma besh yilida oltin qazib olish hajmi 63 tonnadan 87 tonnaga yoki 24 tonna oshgan bo‘lsa, so‘nggi to‘qqiz yilda bunga yana 31 tonna qo‘shilib, o‘tgan yili 118,4 tonnaga yetkazildi. 2016-yildan buyon kumush ishlab chiqarish 1,6 barobar, uran 2,1 barobar, mis 1,4 barobar oshirilishiga erishildi. Natijada tarmoqda ishlab chiqarish 1,7 barobar o‘sib, o‘tgan yili 270 trillion so‘mga yetdi.

Ushbu sohada ko‘p yillik tajribaga ega mutaxassis sifatida ta’kidlardimki, kon-metallurgiya sanoatida, xususan, oltin, kumush va mis qazib olishda bugun kuzatilayotgan yuqori o‘sish sur’atlari ilgari bo‘lmagan. Mazkur yutuqlar, avvalo, yurtimizda uzoqni ko‘zlab yuritilayotgan, puxta o‘ylangan iqtisodiy siyosat, shuningdek, tarmoqni izchil rivojlantirishga qaratilayotgan tizimli chora-tadbirlar hamda yuksak e’tibor samarasidir. Shu nuqtayi nazardan, erishilayotgan yutuqlarimiz milliy sanoatimizning yangi bosqichga ko‘tarilayotganidan dalolat beradi.

Mashaqqatli mehnat samarasi

Kon-metallurgiya sohasida mehnat qilish nafaqat sharafli, balki insondan jasorat va yuksak mas’uliyatni ham talab etadi. Ushbu sohada yuksak natijalarga erishish osonmas. Har qanday katta yutuqlar zamirida tinimsiz mehnat, chuqur bilim hamda mustahkam iroda mujassam bo‘ladi.

Navoiy kon-metallurgiya kombinati jahonda oltin ishlab chiqaruvchi eng yirik kompaniyalardan biridir. Kombinatning mineral resurslari bazasi 140 million unsiyadan ortiqni tashkil etadi. 2025-yilda kombinat 98,2 tonna oltin ishlab chiqardi. Dastur doirasida 1,4 trillion so‘mlik mahalliylashtirilgan mahsulot tayyorlandi. Tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasi doirasida 7,3 trillion so‘mlik mahsulot xarid qilindi. Investitsiya dasturi doirasida 561 million dollarlik mablag‘ o‘zlashtirildi. Yangi loyihalarni amalga oshirish va amaldagi ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish hisobiga 2628 ta yangi ish o‘rni yaratildi. Qo‘lga kiritgan yutuqlarimizda, eng avvalo, 50 mingdan ziyod ahil jamoaning fidokorona mehnati mujassam.

Joriy yilni ham turli sohalarda yutuqlar bilan boshladik. 2026-yil fevral oyida “Sustainable Fitch” xalqaro reyting agentligi tomonidan NKMKning korporativ ESG reytingi “3” darajasida tasdiqlanib, umumiy ko‘rsatkichi 51 balldan 54 ballga yetdi. Shuningdek, kombinat “Gender tenglik faoli” milliy tanlovining respublika bosqichida ishtirok etib, “Gender tenglikni ta’minlashda eng faol respublika tashkiloti” nominatsiyasida g‘olib deb topildi. Aprel oyida 2025-yilda ochiqlik bo‘yicha ishlar samaradorligi va natijadorligini baholashga qaratilgan “Ochiqlik indeksi”ning yakuniy natijalariga ko‘ra, “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ 94,4 ball bilan eng yuqori natijani qayd etib, 1-o‘rinni egalladi.

Rivojlanishning asosiy sharti

Keyingi yillarda kon-metallurgiya sanoati iqtisodiyotning strategik tarmoqlaridan biri sifatida jadal rivojlanmoqda. Tarmoqda samaradorlikni oshirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, resurslardan oqilona foydalanish hamda ekologik barqarorlikni ta’minlashda ilm-fan yutuqlari va ilmiy izlanishlar hal qiluvchi ahamiyat kasb etyapti.

Kon-metallurgiyada ilmiy izlanishlar, avvalo, qazib olish jarayonlarini samarali tashkil etish imkonini beradi. Geologik tadqiqotlar orqali yer osti boyliklarini aniqlash va baholash ishlari takomillashib bormoqda. Bu jarayonda geologiya fani muhim o‘rin tutadi. Zamonaviy geologik tahlillar resurslarni tejash va ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga xizmat qiladi. Qazilma boyliklarni qayta ishlash jarayonida ilg‘or texnologiyalarni qo‘llash mahsulot sifatini oshiradi. Masalan, avtomatlashtirish va raqamlashtirish orqali ishlab chiqarishda aniqlik va samaradorlik ta’minlanadi. Kon-metallurgiya korxonalarida chiqindilarni qayta ishlash, zararli gazlarni kamaytirish va atrof-muhitni muhofaza qilish muhim vazifalardan. Bunday korxonalarda ilm va izlanishlar nafaqat ishlab chiqarish jarayonini takomillashtiradi, balki iqtisodiy o‘sish, ekologik barqarorlik va raqobatbardoshlikka yo‘l ochadi.

Kombinat singari yirik ishlab chiqarish korxonalari uchun ilmiy izlanishlar qilish rivojlanishning asosiy shartidir. Ishlab chiqarish jarayonida turli muammolar yuzaga kelishi tabiiy hol. Ammo ularni samarali hal qilish aynan ilm-fan va tahlilga tayanadi. Ushbu yo‘nalishda korxonamizda tizimli va maqsadli

Navoiy kon-metallurgiya kombinati jamoasi oldida turgan vazifalarni o‘z vaqtida bajarishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda

ishlar qilinmoqda. Bugungi kunda kombinatda 10 nafar fan doktori va 30 nafar fan nomzodi faoliyat yuritmoqda va ular ishlab chiqarish jarayonlari bilan bog‘liq muammolar bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar o‘tkazmoqda.

Ayni paytda korxonamizda 10 dan ortiq mutaxassis ilmiy ishlarini himoya qilish arafasida turibdi. Ular orasida yosh mutaxassislar ko‘pligi quvonarli. Bu kelgusida ilmiy maktablarimiz rivoji, innovatsion g‘oyalar va yangi ilmiy yo‘nalishlar shakllanishi uchun mustahkam zamin yaratadi.

Kombinat va ishlab chiqarish korxonalarida turli sohalarda minglab muhandislar faoliyat yuritmoqda. Ular orasida ilmiy izlanishga moyil va ishlab chiqarishdagi muammolarni hal etish bo‘yicha individual izlanishlar qilayotganlar talaygina. Ularning ilmiy hamjihatligini yanada oshirish maqsadida bugungi kunda kombinatda konstruktorlar va yosh muhandislar kengashlari tashkil etildi. Ushbu kengashlarning asosiy maqsadi korxonada ishlab chiqariladigan mahsulotlar sifatini va raqobatbardoshligini oshirishdan iborat. Shuningdek, yoshlarimiz ishlab chiqarish va texnologik jarayonlarni sun’iy intellekt asosida takomillashtirish, samaradorlik va tejamkorlikni oshirishga qaratilgan ilmiy-innovatsion takliflar hamda ratsionalizatorlik g‘oyalarini o‘rganish va tahlil qilish orqali asoslangan yechimlar ishlab chiqishi ko‘zda tutilgan. Ishlab chiqarish jarayonlarida mavjud muammoli masalalarni ko‘rib chiqish va ularga samarali yechimlar topish kabi vazifalar ham kengash a’zolari zimmasida. Asosiysi, yosh muhandislarning izlanishlari va amaliy faoliyatining o‘zaro integratsiyasi hamda hamkorligini mustahkamlash kelajagimiz uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Biz yoshlarga yetarlicha e’tibor qaratib, zarur shart-sharoitlarni yaratib bersak, ularning qalbida ishtiyoq va salohiyat jonlanadi. Yosh muhandislarimiz bilim, izlanish va innovatsion g‘oyalari bilan nafaqat katta natijalarga erishadi, balki kelajagimiz taraqqiyotiga ham munosib hissa qo‘shadi.

Davlatimiz rahbarining joriy yilning 16-martida Olmaliqda bo‘lgan uchrashuvda yoshlarga qarata “O‘qisin, izlansin, bunday korxonalarda ishlab, hayotda munosib o‘rnini topsin” degan da’vati kombinatda ishlayotgan har bir yigit-qizimiz qalbida aks sado berdi, desam ayni haqiqat.

Zero, bugun yoshlar ta’lim olishi va ilmiy tadqiqot bilan shug‘ullanishi uchun barcha zarur imkoniyat va shart-sharoitlar yaratilyapti. Buni kombinat misolida yaqqol ko‘rishimiz mumkin. O‘tgan yilda 5- va 7-gidrometallurgiya zavodlari, shuningdek, Navoiy mashinasozlik zavodi direktori, bosh muhandisi va quyuv sexi boshlig‘i, Innovatsiya markazi rahbari, markaziy boshqarmada esa transport bo‘limi boshlig‘i dolzarb masalalarga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqot ishlarini muvaffaqiyatli himoya qildi. Ularning ilmiy tadqiqotlari bevosita ishlab chiqarish jarayonlari bilan uzviy bog‘liqligi va ishlab chiqarishga joriy etilgani bilan ahamiyatli. Hozir kombinatning 30 dan ortiq muhandis va mutaxassisi geologiya, geotexnologiya, konchilik ishi, foydali qazilmalarni boyitish, gidrometallurgik jarayonlarni takomillashtirish, axborot texnologiyalari, energetika, materialshunoslik, quymachilik, shuningdek, metallarga ishlov berish va ekologiya kabi yo‘nalishlarda ilmiy tadqiqotlar qilyapti.

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti kon-metallurgiya sanoati uchun yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashga ixtisoslashgan yetakchi oliy ta’lim muassasasidir. Universitetda ta’lim jarayoni ishlab chiqarish bilan uzviy integratsiya qilingan bo‘lib, bu talabalarning nazariy bilimlarini amaliyot bilan mustahkamlash, zamonaviy kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qilmoqda. Oliy ta’lim muassasasida ilmiy tadqiqot faoliyatini rivojlantirishga ustuvor ahamiyat qaratilgan.

Sanoat korxonalari bilan o‘zaro hamkorlik asosida kon-metallurgiya sohasining dolzarb ilmiy-amaliy muammolarini hal etishga yo‘naltirilgan tadqiqotlar tizimli ravishda bajarilyapti. Professor-o‘qituvchilar tarkibining asosiy qismi tomonidan geotexnologiya, foydali qazilmalarni boyitish, materialshunoslik, energetika kabi yo‘nalishlarda ilmiy izlanishlar qilinmoqda. Hozirgi kunda universitetda 47 nafar fan doktori va 175 nafar fan nomzodi faoliyat yuritmoqda. Ilmiy darajaga ega kadrlar soni yuqoriligi ta’lim va ilmiy tadqiqotlar sifatini ta’minlashda muhim omildir. Umumiy ilmiy salohiyat darajasi yuqori, ya’ni 65 foizni tashkil etayotgani mazkur oliy o‘quv yurti kon-metallurgiya sohasi uchun raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy-innovatsion faoliyatni samarali amalga oshirishda muhim o‘rin tutayotganini ko‘rsatadi.

Kon-metallurgiya sanoatida ilm-fan va ilmiy izlanishlar tarmoqning samarali va barqaror rivojlanishida hal qiluvchi omil bo‘lyapti. Zamonaviy texnologiyalar, resurslardan oqilona foydalanish va ekologik muammolarni hal etish aynan ilmiy yondashuv asosida ta’minlanmoqda. Korxonalar va ta’lim muassasalari o‘rtasidagi hamkorlik, malakali mutaxassislar tayyorlash va yoshlarni ilmga jalb etish soha taraqqiyoti uchun mustahkam zamin yaratadi.

> **“NAVOIY KON-METALLURGIYA KOMBINATI JAMOASI YUKSAK MAS’ULIYAT, QAT’IY INTIZOM VA O‘ZARO HAMJIHATLIK ASOSIDA SAMARALI FAOLIYAT YURITIB, ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNI IZCHIL JORIY ETISH HAMDA ISHLAB CHIQARISH QUVVATLARINI KENGAYTIRISH ORQALI BARQAROR RIVOJLANISH VA YANGI YUTUQLARGA ERISHIB KELMOQDA.**

Sun’iy intellekt va raqamlashtirish — davr talabi

Davlatimiz rahbari topshirig‘i asosida Raqamli texnologiyalar vazirligi bilan hamkorlikda Navoiy kon-metallurgiya kombinatida 2025-2030-yillarda sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish va startap loyihalarni amalga oshirish “yo‘l xaritasi” tasdiqlandi. Hujjat doirasida korxona faoliyatining geologiya-qidiruv, tog‘-kon ishlari, rudani qayta ishlash, sanoat xavfsizligi, uskunalarga texnik xizmat ko‘rsatish va energiya resurslarini boshqarish kabi asosiy yo‘nalishlarini qamrab olgan 24 ta sun’iy intellekt va startap loyihasini amalga oshirish ishlari boshlangan.

Katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash va yuqori unumli hisoblash infratuzilmasi shakllantirilmoqda hamda keng ko‘lamli kadrlar tayyorlash ishlari olib borilmoqda. Korxonaning 2000 dan ortiq mutaxassisi sun’iy intellekt texnologiyalari bo‘yicha o‘qitildi.

Bugungi kunda sun’iy intellektga asoslangan birinchi yechimlar, jumladan, sanoat xavfsizligi videotahlili tizimlari, shaxsiy himoya vositalarini taqishni nazorat qilish, karyer texnikasi haydovchilari holati monitoringi, shuningdek, kadrlar tanlash, xaridlar va hujjatlar tahlili uchun sun’iy intellekt yordamchilari — AI assistentlar joriy etildi.

Muruntov konida karyerning raqamli modellarini yaratish va avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish nazoratini ta’minlaydigan uchuvchisiz uchish apparatlari va sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalangan holda kon massasini qazib olish hajmini yuqori aniqlikda hisoblash tizimini joriy etish bo‘yicha tajriba loyihasi amalga oshirildi.

2026-yilda kadrlar va xarid jarayonlarini avtomatlashtirish uchun sun’iy intellekt tizimlari, mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligi bo‘yicha tahliliy tizimlar, karyer texnikasini nazorat qilish uchun videotahlilni rivojlantirish, chiqindi omborlarining sun’iy yo‘ldosh geodinamik monitoringi, shuningdek, uskunalarga bashoratli xizmat ko‘rsatish, energiya iste’molini optimallashtirish va suv resurslarini boshqarishning intellektual tizimlarini o‘z ichiga olgan 10 ta sun’iy intellekt loyihasini amalga oshirish rejalashtirilgan.

Mikroseysmik monitoring va geodinamik xavflarni bashorat qilishning intellektual algoritmlarini joriy etishni nazarda tutuvchi “Xavfsiz raqamli shaxta”, ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish uchun sun’iy intellekt texnologiyalarini qo‘llagan holda yangi avlod MES tizimini joriy etishga qaratilgan “SI — Raqamli gidrometallurgiya” loyihalari asosiy loyihalar hisoblanadi.

Ushbu loyihalar kon-metallurgiya ishlab chiqarishining intellektual raqamli modelini shakllantirish, ruda qazib olish va qayta ishlash samaradorligini oshirish, ishlab chiqarish xatarlarini kamaytirish va mehnat unumdorligi yanada o‘sishini ta’minlash imkonini beradi.

Ulug‘vor vazifalar

Navoiy kon-metallurgiya kombinatida davlatimiz rahbari tomonidan qo‘yilgan, yaqin kelajakdagi vazifalarni so‘zsiz bajarish bo‘yicha ishlar jadallik bilan davom etmoqda. Jumladan, “Muruntov konini o‘zlashtirish. V navbati 2-bosqichi” va “Nuqrakon va Kosmonachi konlaridan kumush ma’danlarni qazib olish va qayta ishlash majmuasini qurish”, “Qoqpatas va Dovg‘iztov oltin konlarida ma’dan qazib olish. III-navbati” kabi investision loyihalar amalga oshirilmoqda.

Yaqinda xalqimiz davlat mustaqilligining 35 yillik ulug‘ ayyomini keng va tantanali nishonlaydi. Bu qutlug‘ bayramni ko‘tarinki ruhda kutib olish, unga puxta tayyorgarlik ko‘rish va o‘tkazish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar belgilab olindi. To‘yga to‘yona deganlaridek, mustaqillik bayrami arafasida 2-gidrometallurgiya zavodida ma’danni qayta ishlash quvvatini yiliga 55 million tonnaga yetkazish imkonini beruvchi yangi bloklar ishga tushiriladi, 3-gidrometallurgiya zavodida

zamonaviy gradirniya binosi foydalanishga topshiriladi, 7-gidrometallurgiya zavodining qayta ishlash quvvatini 10 million tonnaga oshirilib, umumiy quvvati 25 million tonnaga yetkaziladi. Janubiy kon boshqarmasida 400 o‘rinli maishiy bino, Dovg‘iztov koni ishchi-xodimlari uchun 250 o‘rinli oshxona qurilib ishga tushiriladi.

Zarafshon shahrida esa “Oltin vodiy” madaniyat saroyi kapital ta’mirlanib, foydalanishga topshiriladi.

Navoiy kon-metallurgiya kombinati jamoasi yuksak mas’uliyat, qat’iy intizom va o‘zaro hamjihatlik asosida samarali faoliyat yuritib, zamonaviy texnologiyalarni izchil joriy etish hamda ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish orqali barqaror rivojlanish va yangi yutuqlarga erishib kelmoqda.

Har yili may oyining uchinchi yakshanbasi O‘zbekistonda konchilik va metallurgiya xodimlari kuni sifatida keng nishonlanadi. Fursatdan foydalanib, Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi tizimida faoliyat yuritayotgan Olmaliq kon-metallurgiya kombinati, O‘zbekiston metallurgiya kombinati hamda barcha hamkor tashkilotlar jamoalarini kasb bayrami bilan samimiy muborakbod etamiz.

Nuqtayi nazar

INNOVATSION ISHLANMALAR

YOXUD XORAZMNING BARQAROR ENERGETIK MUSTAQILLIGIGA ERISHISHIGA YO‘NALTIRILGAN LOYIHA

Feruza MADRAHIMOVA,
Urganch davlat universiteti rektori, pedagogika fanlari doktori, professor

Qayta tiklanuvchi energiya manbalari mintaqamizdagi ekologik muvozanatni saqlab qolishda muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, Orol dengizining qurib borishi va cho‘llashish jarayoni bilan bog‘liq omillar “yashil” energetikaga o‘tish zaruratini oshirmoqda. Shu bois, bugun yurtimizning turli hududida yirik quyosh va shamol elektr stansiyalari barpo etilyapti. Bu salmoqli ishga xorijiy investorlar jalb qilinmoqda. Zamonaviy texnologiyalar asosida yangi loyihalar amalga oshirilmoqda. Mazkur sa’y-harakatlar esa O‘zbekistonning Markaziy Osiyoda “yashil” energetika bo‘yicha yetakchi davlatlardan biri bo‘lishini ta’minlaydi.

Ushbu ishlarning mantiqiy davomi sifatida Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida ham barcha binolarimizni qamrab oluvchi yuqori quvvatli quyosh elektr stansiyasi ishga tushirildi. Ushbu tizim universitetni arzon va toza energiya bilan ta’minlash barobarida talabalar va xodimlar uchun amaliy ta’lim maydoni bo‘lib xizmat qilmoqda.

Urganch davlat universiteti 2023-2024-yillarda amalga oshirilgan yirik infratuzilma loyihasi doirasida butunlay yangi energetika tizimiga o‘tdi. OTMning barcha asosiy binolari va akademik majmualariga o‘rnatilgan quyosh panellari kompleksi bugun hududdagi eng yirik ta’lim energetika tizimlaridan.

Xususan, 3764 ta quyosh paneli o‘rnatilgan bo‘lib, har birining o‘rtacha quvvati 0,55 kilovattdan iborat. Natijada tizimning umumiy quvvati 2070,2 kilovattni tashkil etadi. Ushbu quvvat yiliga taxminan 3,2 million kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqarish imkonini beradi. Loyiha nafaqat iqtisodiy, balki ekologik jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etib, yiliga o‘rtacha 2450 tonna uglerod dioksidi gazi atmosferaga tarqalishining oldini oladi. Tizimning amortizatsiya muddati 25 yil etib belgilangan va uzoq muddatli barqaror ishlashga mo‘ljallangan. Shu bilan birga, loyiha to‘liq avtomatlashtirilgan to‘r tizimi asosida ishlaydi va universitetdagi hamma binoni qamrab olgan holda yagona energiya infratuzilmasini shakllantiradi. Bu tizim universitetga iqtisodiy jihatdan ham sezilarli foyda keltirmoqda.

Bundan tashqari, Urganch davlat universiteti talabalari, magistrlari va yosh mutaxassislari muqobil energetika manbasiga doir katta innovatsion tadqiqotlar loyihasi ustida ishlamoqda. Bu loyiha Xorazm viloyatining o‘ziga xos geografik va tabiiy iqlim sharoitidan kelib chiqib ishlab chiqilgan hamda hududning barqaror energetik mustaqilligiga erishishiga yo‘naltirilgan.

Xorazm viloyati Markaziy Osiyoning eng zich irmoq va kanallar tarmog‘iga ega hududlaridan. Amudaryo havzasida joylashgan minglab kilometrli ochiq kanallar an’anaviy qishloq xo‘jaligini sug‘orish uchun xizmat qiladi. Ammo bu ulkan suv oqimining energetik salohiyatidan hozirgacha amalda to‘liq foydalanilmayapti.

Universitet tadqiqotchilari “To‘g‘onsiz mikroGES” konsepsiyasini ishlab chiqmoqda. Bu texnologiyaning asosiy afzalligi shundaki, u katta to‘g‘on qurmay, ochiq kanallar oqimining kinetik energiyasidan foydalanishga xizmat qiladi. Natijada ekologik buzilish minimallashtiriladi, investitsiya xarajati keskin kamayadi va mahalliy aholi uchun qulay bo‘lgan energiya ta’minoti tizimi shakllanadi.

Ikkinchi innovatsion yo‘nalish — sun’iy shamol hosil qilish texnologiyasini energetika maqsadlarida qo‘llash. Bu g‘oya an’anaviy shamol turbinalaridan tubdan farq qiladi: tabiiy shamol intensivligi yetarli bo‘lmagan hududlarda yoki ixtiyoriy muhandislik tuzilmalari yordamida yo‘naltirilgan havo oqimi yaratib, kichik turbinalar orqali elektr energiyasi ishlab chiqarishni ko‘zda tutadi.

Xorazm o‘rtacha shamol tezligi jihatidan O‘zbekistonning boshqa hududlariga nisbatan past ko‘rsatkichga ega. Shu sababli universitet tadqiqotchilari Venturi effekti va aerodinamik naylar yordamida havo oqimini keskin tezlashtirib, kichik avtonom turbinalarga yetkazib berish konsepsiyasini o‘rganmoqda.

OTMda o‘tkazilayotgan barcha tadqiqotlar ko‘p bosqichli ilmiy metodologiyaga asoslanadi. Talabalar va magistrlar laboratoriya tajribalaridan boshlab, real muhandislik prototiplarini yaratish va pilot loyihalarni amalda sinashgacha bo‘lgan to‘liq tadqiqot siklini bajaradi.

Qolaversa, Urganch davlat universiteti Toshkent davlat texnika universiteti, O‘zbekiston Milliy universiteti va Xorazm Ma’mun akademiyasi bilan hamkorlikda tadqiqotlar o‘tkazmoqda. Xorijiy hamkorlar qatorida Germaniya, Janubiy Koreya, Malayziya va Niderlandiya universitetlari bilan memorandumlar imzolangan bo‘lib, qo‘shma grantlar va xalqaro tadqiqotlar imkoniyatlari faol o‘rganilmoqda.

Universitetning quyosh energetikasi, mikro-GES va sun’iy shamol bo‘yicha kompleks ilmiy faoliyati Xorazm viloyati va butun Markaziy Osiyo uchun namuna bo‘lmoqda. OTMga kelgan viloyat hokimlari, biznes vakillari va qo‘shni davlatlar mutaxassislari tajriba almashish va loyihani o‘z hududida tatbiq etish bo‘yicha hamkorlik qilmoqda. Bu ko‘paytiruvchi ta’sirning aniq namunasi bo‘lib, bitta muvaffaqiyatli muassasa o‘nlab yoki yuzlab boshqa tashkilotlarga ilhom berishi mumkin.

Talabalar va o‘qituvchilar “yashil” energetika sohasida xalqaro sertifikatlashtirish dasturlarida ishtirok etmoqda. Bu kadrlar mamlakatimizning barcha hududiga borib, “yashil iqtisodiyot”ning haqiqiy elchilari va muhandislari bo‘lib xizmat qiladi. Ular faqat bilimdon mutaxassislar emas, balki amaliy muammolarni ham hal qila oladigan innovatorlar bo‘lib yetishmoqda.

IJTIMOIY HIMOYA – INSONIYLIK DEMAK

Ijtimoiy himoya har qanday davlatning insoniylik darajasini belgilovchi eng muhim ko‘rsatkichlardan biridir. Muhtoj aholini qo‘llab-quvvatlash dastlab oila va mahalla institutlari orqali amalga oshirilgan bo‘lsa, keyinchalik bu vazifa davlatning bevosita mas’uliyatiga aylandi. Shu tariqa oddiy yordam berish amaliyoti huquqiy kafolatlar, institutsional mexanizmlar va kompleksli tizimga o‘tdi.

Dolzarb mavzu

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

Farid NAZAROV,
Ijtimoiy himoya milliy agentligi yuridik bo‘limi boshlig‘i

Dunyo tajribasida ijtimoiy himoya tushunchasi pensiya va nafaqalar bilan cheklanmaydi. U insonning butun hayoti davomida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavf-xatarlarni qamrab oladi. Jumladan, bolalikdan keksalikkacha, sog‘liq holati yomonlashgan paytda, ishsizlikda, nogironlik holatida, zo‘ravonlikka duch kelganda yoki og‘ir hayotiy vaziyatga tushganda davlat tomonidan kafolatlangan yordam va xizmatlar tizimini o‘z ichiga oladi. U qanchalik keng qamrovli va xizmatlarga boy bo‘lsa, jamiyatda ijtimoiy barqarorlik shunchalik yuqori bo‘ladi. Masalan, Finlyandiya ijtimoiy himoya tizimida 40 dan ortiq turdagi xizmatlar mavjud. Unda oilaviy maslahat, nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash, uyda parvarish, reabilitatsiya, ishsizlik bo‘yicha xizmatlar va ijtimoiy moslashuv dasturlari yo‘lga qo‘yilgan. Bu mamlakatda asosiy urg‘u insonni mustaqil hayotga qaytarishga qaratilgan.

Germaniyada tizim yanada keng bo‘lib, 50 ga yaqin turdagi xizmatlarni qamrab oladi. Pensiya, tibbiy sug‘urta, ishsizlik sug‘urtasi bilan birga uzoq muddatli parvarish (long-term care) xizmati alohida shakllangan. Shuningdek, ijtimoiy xizmatlar oilaviy inqiroz, nogironlik, qarilik va ijtimoiy chetlashuv holatlarida individual yondashuv asosida ko‘rsatiladi.

Janubiy Koreyada tizim 30 dan ortiq xizmat turini o‘z ichiga olgan. Bu mamlakatda keksa aholi uchun uzluksiz parvarish, kunduzgi markazlar, uyda xizmat ko‘rsatish, shuningdek, yoshlar va oilalarni qo‘llab-quvvatlash dasturlari keng joriy etilgan. Davlat ijtimoiy xizmatlarni raqamlashtirish va manzilli yetkazishga katta e’tibor qaratadi. Ushbu mamlakatlar tajribasi ko‘rsatadiki, faoliyat samarali bo‘lishi uchun u faqat to‘lovlar bilan cheklanmasligi, turli hayotiy vaziyatlarni qamrab oluvchi keng xizmatlar majmuasiga ega bo‘lishi lozim. Aynan xizmatlar diversifikatsiyasi va ularning insonga yaqinligi samaradorlikni belgilaydi.

Xorijda ijtimoiy himoya tizimining asosiy tamoyillari va xizmat turlari, avvalo, qonun darajasida belgilanadi. Deylik, ularning turlari, foydalanish huquqi, davlatning majburiyat va kafolatlari parlament tomonidan qabul qilinadigan qonunlar orqali mustahkamlanadi. Shu bilan birga, yangi xizmat turlarini amaliy jihatdan joriy etish, tartib-taomillarini belgilash va moliyalashtirish mexanizmlarini aniqlash odatda hukumat qarorlari yoki ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan qabul qilinadigan hujjatlar asosida amalga oshiriladi.

Ayrim holatlarda esa alohida turlar sohaviy vazirliklar tomonidan qabul qilinadigan normativ hujjatlar — nizomlar, standartlar va ma’muriy reglamentlar orqali tartibga solinadi. Bu, ayniqsa, reabilitatsiya, parvarish, bolalarni himoya qilish yoki ruhiy salomatlik kabi yuqori ixtisoslashgan yo‘nalishlarda qo‘llaniladi.

Shu tariqa xalqaro amaliyotda ijtimoiy xizmatlarni joriy etish “uch bosqichli huquqiy model” asosida amalga oshiriladi. Ya’ni qonun strategik asosni belgilaydi, hukumat qarorlari mexanizmlarni shakllantiradi, sohaviy hujjatlar esa xizmatlarning amalda ishlash tartibini ta’minlaydi.

Bunday tajriba O‘zbekiston uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lib, so‘nggi yillarda milliy modelda aynan shunday tizimli yondashuv shakllanayotganini kuzatish mumkin. Xususan, Konstitutsiyamizda O‘zbekistonning “ijtimoiy davlat” ekani belgilab qo‘yildi. Ushbu norma davlat zimmasiga aniq majburiyatlarni yuklaydigan huquqiy tamoyildir. Konstitutsiyaga ko‘ra, har bir shaxs qariganda, mehnat qobiliyatini, boquvchisini yo‘qotganda va boshqa holatlarda ijtimoiy ta’minot olish huquqiga ega. Shuningdek, pensiya va nafaqalar insonning munosib turmush darajasini ta’minlashi lozimligi belgilab qo‘yilgan. Mehnatga layoqatsiz va ehtiyojmand shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash kafolatlangan. Bu normalar ijtimoiy himoyani majburiy davlat funksiyasiga aylantiradi.

Aynan shu konstitutsiyaviy poydevor asosida so‘nggi yillarda O‘zbekistonda sohada keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi. 2023-2026-yillar davomida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar tahlili ko‘rsatadiki, ushbu davrda ijtimoiy himoya sohasi davlat siyosatining eng faol yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Ya’ni jami 70 dan ortiq normativ-huquqiy hujjat qabul qilingan bo‘lib, bu o‘rtacha hisobda har oyda kamida ikkita yangi qaror yoki farmon qabul qilinganini anglatadi.

2023-yil islohotlarning institutsional bosqichi bo‘ldi. O‘sha yilning 1-iyunida davlatimiz rahbarining “Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni va tizimga daxldor qarorlar orqali yagona markaz va aniq boshqaruv vertikali yaratildi. Ijtimoiy xodim instituti shakllantirildi va uning roli tubdan qayta ko‘rib chiqildi.

Aynan shu yondashuv asosida hududlarda “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari tashkil etildi. Ushbu markazlar aholiga ijtimoiy xizmatlar va yordamlarni “bir darcha” tamoyili asosida ko‘rsatish, turli idoralar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni ta’minlash hamda fuqarolar muammolarini joyida hal etishning asosiy institutsional platformasiga aylandi. Eng muhimi, faoliyat inson yashaydigan muhitga — mahallaga yaqinlashtirildi. Ushbu markazlar orqali xizmatlar ehtiyojni aniqlash, xavfni baholash va proaktiv yondashuv asosida ko‘rsatila boshlandi.

Tizimni amaliy jihatdan ishlatish uchun zarur bo‘lgan asosiy elementlar ham shakllantirildi. Xususan, yordamlar tizimini takomillashtirishga qaratilgan qarorlar qabul qilindi, sohadagi funksiyalar optimallashtirildi, o‘zgalar parvarishiga muhtoj shaxslarga xizmat ko‘rsatish tizimi qayta ko‘rib chiqildi. Ijtimoiy himoyani raqamlashtirish, elektron ariza berish, yagona reyestr orqali ma’lumotlarni yuritish kabi mexanizmlar joriy etildi. Bu esa aniq ma’lumotlarga asoslangan tizim shakllanishiga olib keldi.

2024-yilga kelib islohotlar mazmun jihatidan yangi bosqichga chiqdi. Jumladan, nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlarini yanada kuchaytirish, tizimni takomillashtirish va bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilishning huquqiy asoslari yanada mustahkamlandi. Reabilitatsiya xizmatlari, protez-ortopediya yordami, nogironlikni baholash tizimi, zo‘ravonlikdan jabrlanganlarga yordam kabi yo‘nalishlar tartibga solindi.

“Bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonun ularni himoya qilish sohasida mutlaqo yangi bosqichni boshlab berdi. Ushbu qonun bolalarni himoya qilish yo‘nalishidagi islohotlarga tizimli huquqiy asos yaratib, davlat siyosatini profilaktika, erta aniqlash va kompleks yordam ko‘rsatishga yo‘naltirdi.

Eng muhimi, ushbu qonun bolalarga nisbatan zo‘ravonlikni ijtimoiy xavf sifatida ko‘rib, uni bartaraf etishda ta’lim, sog‘liqni saqlash va huquqni muhofaza qiluvchi organlar o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamladi.

Shuningdek, qonun bolalarga nisbatan zo‘ravonlik holatlarini aniqlash, xavf darajasini baholash, individual himoya rejalarini ishlab chiqish va amalga oshirish kabi yangi mexanizmlarni joriy etishga asos bo‘ldi. Bu esa bolani himoya qilishda xavfni oldindan bartaraf etishga qaratilgan tizimni shakllantirdi.

Umuman olganda, ushbu qonun bu borada yangi islohotlar uchun start nuqtasi bo‘ldi. Mazkur yo‘nalishda davlat siyosatini sifat jihatidan yangi darajaga olib chiqdi.

2025-yil esa ijtimoiy himoya tizimining institutsional va moliyaviy jihatdan mustahkamlangan bosqichi bo‘ldi. “Davlat ijtimoiy sug‘urtasi to‘g‘risida”gi qonun qabul qilinishi bilan tizimga sug‘urtaviy elementlar kiritildi. Kambag‘allikni qisqartirish, nogironligi bo‘lgan shaxslarni bandlikka jalb etish, ijtimoiy xizmatlarni hududlarga yaqinlashtirish, bolalarni himoyalash bo‘yicha strategiyalar kabi yo‘nalishlarda muhim qarorlar qabul qilindi.

Bu islohotlar ijtimoiy himoyani reaktiv tizimdan proaktiv tizimga aylantirdi. Ya’ni davlat muammo yuzaga kelishidan oldin xavfni aniqlab, bartaraf etishga harakat qilmoqda.

2026-yildagi ishlar ham shu an’ana davom etayotganini ko‘rsatmoqda. Ijtimoiy reyestr asosida oilalarni qo‘llab-quvvatlash, yangi dasturlarni joriy etish va xavf guruhiga kiruvchi bolalar bilan ishlash tizimini kuchaytirishga qaratilgan qarorlar qabul qilindi.

O‘zbekiston modeli konseptual jihatdan bir nechta muhim xususiyati bilan ajralib turadi. Ya’ni bizda ijtimoiy himoya manzillilik va raqamli texnologiyalarga asoslanmoqda. Ijtimoiy xizmatlar davlat tomonidan kafolatlangan xizmatlar sifatida shakllanyapti. Ehtiyojlar insonning hayotiy vaziyati va funksional holatiga qarab baholanmoqda.

Ijtimoiy xodim instituti mustahkamlanib, professional ish faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. Xizmatlar muassasalardan jamiyatga, ya’ni insonga yaqinlashtirilmoqda.

Keng huquqiy tahlil ko‘rsatadiki, bu islohotlar faqat alohida qarorlar yig‘indisi emas. Ular o‘zaro bog‘langan, yagona konsepsiyaga asoslangan va bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan tizimli siyosatdir. Bu siyosatning markazida esa inson turibdi. Hozirgi sur’at saqlanib qolsa, O‘zbekiston yaqin yillarda mazkur sohada mintaqadagi eng ilg‘or modellardan birini shakllantirishi mumkin.

ORZU, SHIJOAT VA MATONATNING RANGIN OLAMI

Inson yuragi urib, qalbida orzu yashar ekan, harakatdan to‘xtamaydi. U to‘siqlarni yengib o‘tadi. Oramizda shundaylar borki, matonat borasida o‘rnak olsa arziydi. Ular hayotga intilishi, jasorati ila imkonsiz ko‘ringan marralarni ham zabt etib, boshqalarni hayratga soladi. Biz hikoya qilmoqchi bo‘lgan qahramonimiz ham ana shunday yurtdoshlarimizdan biri.

Oramizdagi odamlar

Sevinch Narziyeva bugun 21 yoshda. Imkoniyati cheklangan. U dunyoga kelganida ota-onasining quvonchi ichiga sig‘magan edi. Shu sabab unga Sevinch deya ism qo‘yishgandi. Shifokorlar tibbiy ko‘rik o‘tkazganida Sevinch boshqa go‘daklar qatori sog‘lom edi. Onasi yaxshi parvarishlay boshladi. Ammo besh oylik bo‘lganida to‘satdan shamolladi. Muolaja davomidagi birgina xato tufayli qizaloq nogiron bo‘lib qoldi. Ota qizini bag‘riga bosib, bormagan shifoxonasi, uchrashmagan tabibi qolmadi. Na iloj, imkonsiz qolaverdi. Boshiga qancha tashvish tushsa-da, nolish nimaligini bilmagan G‘iyos aka qizi kamoli uchun bor kuchini sarfladi. Oddiy ishchi bo‘lishiga qaramay, unga imkoniyat yaratib berishga intildi. Natijada qizi adabiyotga, tasviriy san’atga mehr qo‘yib ulg‘aydi.

— Bolaligida kitob o‘qib berishimni iltimos qilardi. Deyarli har kuni ertak o‘qib uxlatardim, — deydi Sevinchning onasi Gulsara Ahmedova. — Keyinchalik o‘zi mustaqil o‘qiydigan bo‘ldi. Shundan so‘ng dadasi kitob olib bera boshladi. Bir kuni uyga kirsam, oyog‘ining barmoqlari orasiga qalam qistirilgan. Qog‘ozga nimadir chizishga urinyapti. Hayratda qoldim. O‘sha paytda yetti yoshda edi. Chizishni uddalay olishiga ishonmadim. Buni opasi o‘rgatgan ekan. So‘ng har kuni shu bilan shug‘ullanadigan bo‘ldi. Tirishqoqligi bois, dastlab qalamni oyog‘i barmoqlari orasida ushlashni o‘zlashtirdi. Keyin turli shakllar chizishni boshladi. O‘zi uchun sevimli mashg‘ulot topganiga mamnun bo‘ldik. Qog‘oz-qalam olib berdik. Boshida o‘xshamagandi. Asta-sekin harakatlari yaxshi chiqa boshladi. Keyin maktabga o‘qishga berdik. Fanlarni yaxshi o‘zlashtirdi. Yozishni ham oyoqda bajaradi. Hozir chizayotgan suratlari kishini o‘ziga rom etadi.

O‘rta maktabni inklyuziv tartibda yakunlagan Sevinchda Qarshi davlat universitetida o‘qish istagi paydo bo‘ldi. O‘zi qiziqqan tasviriy san’at yo‘nalishiga hujjat topshirib, ijodiy imtihonlardan yuqori baho oldi. Ammo ayrim hujjatlarida kamchiligi borligi sabab talabalar safidan joy ololmadi. O‘tgan yili jiddiy hozirlik ko‘rgan qiz imtihonlardan yaxshi o‘tdi. Hozir oliygohning tasviriy san’at va muhandislik grafikasi yo‘nalishi birinchi bosqichida tahsil olmoqda. Universitet ma’muriyati uning bilim olishiga yengillik yaratish maqsadida uyda dars o‘tmoqda.

— Sevinch qizimiz yaqinda birinchi bosqichni yakunlaydi, — deydi Qarshi davlat universiteti o‘qituvchisi Orif Mirzayev. — Intilishi ancha yaxshi. Inson astoydil xohlasa, o‘z maqsadiga erishishi mumkin. Buni shu qiz misolida ham ko‘rsa bo‘ladi. Harakati dadil. Ilgari havaskor sifatida rasm chizgan bo‘lsa, bugun rassomlikni ilmiy jihatdan, qoidalar asosida o‘rganyapti. Bundan tashqari, u ko‘p badiiy kitob o‘qigan. Shu bois, tafakkuri yuksak. Tasavvur olami keng. O‘z xayoloti bilan yangi asar yarata oladi. Bular rassom uchun juda muhim jihat. Chizgan ayrim rasmlari kishini o‘yga toldiradi. Ularni anglash uchun teran nigoh kerak. O‘ylashimcha, Sevinch shunchaki chizmaydi, qalbidagi tug‘yonlarni qog‘ozga tushiradi. Muhimi, rassom qizimiz maqsad qo‘ydimi, chekinmaydi. Orzulari bisyor. Hali katta ko‘rgazmalar tashkil etish rejasi bor. Har safar unga dars o‘tayotib, o‘zim ham nimadir o‘rganaman.

Xayollar og‘ushida rasm chizayotgan qizning harakatlarini bir muddat kuzatdik. Oyog‘ining barmoqlari orasiga qistirilgan qalamni bir maromda harakatlantirmoqda. Asta-sekin tasvirlar chiziladi. Bir mahal unga qaysidir chiziq yoqmaydi shekilli, bir muddat to‘xtaydi. O‘chirg‘ichni chap oyog‘ining barmoqlari orasida ushlab, tasvirlarni o‘chiradi. Yana chizishga kirishadi...

— Yetti yoshimda oyog‘imda qalam ushlashni o‘rgangandim, — deydi Sevinch. — Ko‘p yillar o‘z bilganimcha rasm chizdim. Ular yaxshi chiqsa ham, o‘xshamayroq qolsa ham chizishdan to‘xtamadim. Keyin shu tarzda yozishni o‘rgandim. Maktabdagi ustozlarimdan ko‘p yaxshi saboqlar oldim. Inson harakat qilsa, maqsad sari yaqinlashib boraverar ekan. Hozir universitetdagi o‘qituvchilarim tasviriy san’at sirlarini o‘rgatmoqda. Kelgusida shaxsiy ko‘rgazmalarimni tashkil etishni maqsad qilganman.

Aytishlaricha, qahramonimizning otasi G‘iyos aka ham 2-guruh nogironi. Tabiiyki, oilaning iqtisodiy ahvoli shunga yarasha. Lekin G‘iyos aka qiziga kerakli narsalarni o‘z vaqtida yetkazib bermoqda. Bu matonatli yurtdoshimiz biror marta mas’ullardan yordam so‘rab bormagan. Ular boriga shukr qilib, yo‘g‘ini yo‘ndirib yashab kelmoqda. Mabodo mahalla raisi va faollari kelib yordam berishni taklif etsa ham buni rad etishiga shubha yo‘q. Qahramonimiz bilan xayrlashar ekanmiz, mahalla bu oilaga baribir ko‘mak berishi, hech yo‘q Sevinch uchun kitoblar sovg‘a qilishi kerak deb o‘yladik.

Akbar G‘OZIYEV,
jurnalist

Inson qadri uchun

QALBLARGA NUR ULASHGAN EZGU TASHABBUS

PREZIDENTIMIZ NOMIDAN HAJ SAFARIGA YO‘LLANMA OLGAN NURONIYLAR QUVONCHI

Shunday lahzalar bo‘ladiki, ular inson qalbida umrbod muhrlanib qoladi. Ba’zan bir ezgu xabar yillar davomida dil tubida asrab kelingan orzularni ro‘yobga chiqarib, ko‘zlarga shukronalik yoshini keltiradi, qalblarga esa beqiyos umid, xotirjamlik va surur bag‘ishlaydi. Ayniqsa, muqaddas Ka’batulloh ziyoratini butun umr armon va sog‘inch bilan kutib yashagan nuroniy otaxon va onaxonlarimiz uchun kutilmaganda orzulari ushalgan o‘sha muborak onlar hayotning eng unutilmas, eng qutlug‘ va aziz damlariga aylanadi.

Inson qadri ulug‘lanayotgan yangi O‘zbekistonda bu kabi saodatli lahzalar shunchaki tasodif emas, balki insonparvar siyosatning amaldagi yorqin ifodasiga aylanayotgani ayni haqiqat.

Bu yilgi muborak Ramazon oyida amalga oshirilgan xayrli tadbirlar shu ezgu siyosatning yorqin namunasi bo‘ldi. Ehtiyojmand aholi uchun ajratilgan mablag‘lar, yuzlab insonlarga umid bag‘ishlagan bepul jarrohlik amaliyotlari, fayzli iftorlik dasturxonlari, arzonlashtirilgan oziq-ovqat yarmarkalari — bularning barchasi xalq dardi bilan yashash, insonni rozi qilishdek oliy qadriyatning amaliy ifodasi sifatida qalblardan chuqur joy oldi.

Bugun esa ana shu ezgu ishlar mantiqiy davom etib, yana bir ulug‘ xayrli tashabbus xalqimiz qalbiga cheksiz quvonch ulashmoqda. Ya’ni yuz nafar yurtdoshimiz Prezidentimiz nomidan haj safariga yo‘llanma olish sharafiga munosib ko‘rildi. Bu nafaqat ularning hayotidagi eng unutilmas voqea, balki butun xalqimiz uchun mehr-oqibat, ehtirom va insoniylikning yuksak namunasidir. Chunki Ka’batulloh ziyoratiga musharraf bo‘lish har bir musulmonning eng ulug‘ orzularidan biridir.

Qalblarga surur bag‘ishlagan bu saodatli ro‘yxatdan jizzaxlik 6 nuroniy ham o‘rin olgani voha ahli tomonidan katta mamnuniyat bilan qarshi olindi. Zero, yurt tinchligiga duogo‘y bo‘lib, umri davomida halol mehnat va ezgulik bilan yashagan insonlarning muborak haj safariga musharraf bo‘lishi nafaqat oilasi, balki butun mahalla va el-yurt uchun ham katta sharafdir.

Xususan, Zafarobod tumanida istiqomat qiluvchi Abduhoshim ota O‘rozovning xonadonida haqiqiy bayram muhiti hukmron. Otaxonning xonadoniga kirgan har bir inson bu yerdagi quvonch, hayajon va shukronalik tuyg‘ularini yurakdan his etadi. Uning ko‘zlaridagi sevinch yoshlari, farzandlari va yaqinlari chehrasidagi faxr va mamnuniyat bugungi ezgu siyosatning eng ta’sirli ifodasi o‘laroq namoyon bo‘lmoqda.

Shu munosabat bilan Jizzax viloyati hokimi Abduhoshim otaning xonadoniga tashrif buyurib, mamlakatimiz yetakchisi nomidan haj safari uchun maxsus yo‘llanma hamda

esdalik sovg‘alar topshirdi. Samimiy muloqot, ezgu tilaklar va duolarga boy kechgan uchrashuv xonadon ahli uchun umrbod yodda qoladigan unutilmas lahzalarga aylandi.

Nuroniylarga ko‘rsatilayotgan yuksak ehtirom va e’tibor xalqimizga xos azaliy qadriyatlarning yana bir yorqin namunasi ekani ta’kidlandi. Zero, keksalarni e’zozlash, duosini olish, ko‘nglini shod etish xalqimizning ma’naviy tayanchi, milliy qadriyatlarimizning ajralmas qismi hisoblanadi.

Abduhoshim ota esa, o‘z navbatida, ana shunday yuksak e’tibor va g‘amxo‘rlik uchun davlatimiz rahbariga cheksiz minnatdorlik bildirib, yurtimiz tinchligi, xalqimiz farovonligi va yangi O‘zbekiston ravnaqi uchun samimiy duolar qildi.

“Mana shunday saodatli kunlarga yetkazgan Yaratganga behisob shukr qilaman, — deydi Abduhoshim ota O‘rozov. “Bugungi quvonchimni, qalbimdagi hayajon va shukronalik tuyg‘ularini so‘z bilan to‘liq ifodalash juda qiyin. Rostini aytsam, hozir o‘zimni tush ko‘rayotgandek his qilyapman. Boshimga baxt qushi qo‘ndi, desam mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki chekka tumandagi oddiy qishloqda yashovchi, umrini halol mehnat bilan o‘tkazgan mendek bir nafaqaxo‘r insonning ko‘nglidagi eng ulug‘ orzulardan biri ushalishi — beqiyos baxt”.

Bu mehr va e’tiborni umrimning oxirigacha unutmayman. Nasib qilsa, muqaddas zaminlarda, duolar ijobat bo‘ladigan muborak onlarda xalqimiz, Prezidentimiz va aziz vatanimiz haqqiga samimiy duolar qilaman. Yurtimiz osmoni doimo musaffo, xalqimiz tinch va farovon bo‘lsin, yangi O‘zbekistonimiz yanada taraqqiy etsin, farzandlarimiz baxtli kelajak sohiblari bo‘lishsin deb Yaratgandan so‘rayman.

Qariyb qirq yil umrimni maktabga, ta’lim-tarbiyaga bag‘ishladim. Matematika fanidan o‘g‘il-qizlarga saboq berdim. Shu bois, bugungi o‘zgarishlarni ko‘rib, qalbim quvonchga to‘ladi. Chunki biz ishlagan davr bilan hozirgi kunni solishtirsam, yer bilan osmoncha farq bor. Ilgari maktab degani qiyinchilik, mashaqqat va yetishmovchilik bilan bog‘liq edi. Bolalar bilim olish o‘rniga oylab paxta dalalarida yurardi. Maoshimiz tirikchilikka arang yetardi. Uni ham ba’zan ikki-uch oylab kutib olardik.

Bugun esa maktablarga kirsam, havasim keladi. Zamonaviy binolar, shinam sinf-xonalar, interaktiv texnologiyalar, kitobga va ilmga e’tibor — bularning barchasi ta’lim sohasiga davlat darajasida katta ahamiyat berilayotganini ko‘rsatadi.

Yurtimizdagi islohotlar zamirida aynan inson manfaati, uning qadri va baxtli hayotini ta’minlashdek ulug‘ maqsad mujassam. Abduhoshim ota kabi nuroniylarning qalbidan chiqqan samimiy shukronalik va duolar esa bu ezgu siyosatning xalq qalbida chuqur aks sado topayotganini yaqqol namoyon etadi.

Muqaddas haj safariga otlanayotgan nuroniylarimizning ezgu tilaklari, yurt tinchligi va xalq farovonligi yo‘lida qilayotgan samimiy duolari yangi O‘zbekistonda ma’naviy muhit yanada yuksalayotgani, mehr-oqibat va insonparvarlik tamoyillari tobora mustahkamlanib borayotganining yorqin ramzi sifatida barchamizning qalbimizga iliqlik, umid va ishonch bag‘ishlaydi.

Farhod NE’MATOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Ziyorat turizmi



— Bobo, qarang, mana bu daraxt XV asrda ekilgan ekan.
— Shunday, bolam, o‘sha paytda yaxshi niyat bilan ekilgan-da.
— Yonidagilar ham shunday ekan. Beshta ekan. Ekilganigayam besh asrdan oshibdi. Bularning yoshi qanday aniqlangan?
— Aniqlash mushkul emas, muhimi, shu vaqtga qadar qirqilmaganida. Qara, o‘zi ham uzoq tarixdan so‘ylab turibdi. Salobatiga e’tibor ber. Bular ne-ne kunlarga guvoh bo‘lmagan deysan, bolam.

ILM ZIYOSINI TARATGAN alloma

— Bobo, nega ziyorat qilinadi?

— Qo‘lingdagi yaproqdek telefoning bor-ku. Shuning ham quvvati tugab qoladi. To‘g‘rimi? Xuddi shunday, gohida turmush tashvishlaridan toliqib, insonning ham ruhiy quvvati kamayib qoladi. Ana shunday damda ziyoratgohlarga kelib, odam o‘ziga kuch oladi. Tetiklashadi.

— Sizning quvvatingiz kamayib qoldimi?

— Ha, bolam. Yura qol, tezroq borib ziyorat qilmasak, charchab o‘tirib qolaman.

O‘n yoshlar atrofidagi bola bobosiga hayrat bilan boqqancha qo‘lidan mahkam ushlab oldi. Go‘yo quvvati tugagan odamga tirgak bo‘layotgandek yura boshladi. Qariya esa ziyorat odobini nabirasiga tushuntirib borardi.

Bobo va nabiraning savol-javob qilib, yetaklashib ketayotganini ko‘rib, havasim keldi. Majmua maydonidagi besh asrlik tut daraxtlari bunday suhbatlarga ko‘p guvoh bo‘lgandir. Ayniqsa, keyingi yillarda. Boisi, yaqin yillarga qadar bu manzilda buyuk alloma qabri borligi haqida deyarli hech kim bilmagan. Bugun esa bu joy obod makonga aylandi.

Moziyga nazar tashlaydigan bo‘lsak, Nasaf azal-azaldan dunyo ilm-fani va madaniyati ravnaqiga salmoqli hissa qo‘shgan shaharlardan biri bo‘lib kelgan. Xususan, qadimiy qo‘lyozma va bibliografik qomusiy asarlarni varaqlab ko‘rsak, bu barokatli kentdan ko‘plab olim-u ulamolar yetishib chiqib, Nasafiy nisbasi bilan samarali ijod qilganining guvohi bo‘lamiz.

Shulardan biri Abul Muin Nasafiydir. U islom dinini ichkaridan buzishga uringan, botil qarashli oqimlar ilgari surgan g‘oyalarga qarshi kurashar ekan, har bir muammo (ixtilof)ga katta e’tibor bilan yondashdi, dalillarni ham shunga muvofiq tanladi. Bu yo‘lda kalom ilmi yo‘nalishidagi ustozi Imom Abu Mansur Moturidiy qarashlarini rivojlantirishi natijasida sodda va samarali dalillarni asoslab, targ‘ib qildi. Shu bois, uni zamondoshlari “haqiqat qilichi” deya ulug‘lagan. Keyingi yillarda ko‘plab allomalarimiz qatorida Abul Muin Nasafiyning hayoti va asarlarini ilmiy asosda o‘rganish ishlari yo‘lga qo‘yildi. Alloma mangu qo‘nim topgan manzil obod go‘shaga aylantirildi.

— Ancha yillar Qovchin mahallasiga raislik qilganman, — deydi Abu Muin Nasafiy majmuasini boshqarish va obodonlashtirish direksiyasi rahbari Muzaffar Bozorov. — Shu qishloqda tug‘ilib o‘sganman. Ilgari bu hududda buyuk alloma qabri borligi haqida umuman ma’lumotga ega emas edik. Ziyoratgoh haqida tushunchamiz ham yo‘q edi. Bu yerda faqat eski masjid bo‘lgan. Shunda ham yo‘llari tuproqli, qarovsiz holda edi. Qishloq keksalaridan boshqa biror kishi kelmasdi. Bir chetda ko‘rimsizgina maqbara bor edi. Lekin kim uchun qurilgani, qabrda kim yotgani ma’lum emasdi. Prezidentimiz Qashqadaryoga tashriflaridan birida shu ziyoratgohga kelib, bu joyni obod qilish borasida ko‘rsatma berdi. Shundan so‘ng hududda katta bunyodkorlik ishlari boshlanib ketdi. Usta-duradgorlar, malakali hunarmandlar mehnati evaziga ziyoratgoh yaxlit majmua shakliga keltirildi. 2,1 gektar maydonni egallagan obida hududida yangi 500 o‘rinli masjid, kutubxona, muzey, ma’muriy bino, tahoratxona va choyxonalar qurib bitkazildi. Majmua hududidan o‘tuvchi kichik anhor rekonstruksiya qilindi. Tashqi yo‘llarni zamonaviy loyihalar asosida qayta qurish bo‘yicha chora-tadbirlar belgilanib, barchasi to‘liq yakuniga yetkazildi. Atrofi obodonlashtirilib, daraxtlar o‘tqazildi. O‘sha paytda ekilgan nihollar katta daraxt bo‘lib, majmuamizga chiroy baxsh etmoqda.

Bugun majmuada muzey ham tashkil etilgan. U yerda noyob eksponatlar ko‘p. Jumladan, xitoy ipak qog‘oziga bitilgan noyob Qur’oni karim qo‘lyozmasini shular qatoriga kiritish mumkin. Bu muqaddas kitobning bo‘yi 60, eni 41 santimetr. Mazkur Qur’on uchun usta Zarif degan kishi balandligi 1 metr 60 santimetrli lavh yasagan. Lavhda hijriy yil hisobi bilan 1266 (milodiy 1851) sanasi yozib qoldirilgan. Shuningdek, unga

12 qatordan iborat forsiy she’r o‘yib bitilgan. Bundan tashqari, u yerda “Sharhi hikmat ul-ayn”, “Devoni Jomiy” kabi uchta kitob mavjud. Muzey xodimlarining aytishicha, ushbu manbalar ancha yillar oldin ziyoratgoh hovlisidagi qalin paxsa devor orasidan chiqib qolgan. Ziyoratgoh atrofida katta qabriston ham bor. Hududi 50 gektardan ko‘proq. Ayni paytda buyuk alloma xoki yotgan manzil mahalliy va xorijlik ziyoratchilar bilan gavjum.

Shamsul-aimma al-Halvoniy kim bo‘lgan?

Abu Muin Nasafiy ziyoratgohidan chamasi olti-yetti yuz metrlar masofa narida, janubi-sharq tomonda yana bir ziyoratgoh mavjud. Mahalliy aholining fikricha, bu yerda ulug‘ mutafakkirning qabri bor. Faqat Nasafiy ziyoratgohidan farqli ravishda bu joyning atrofi obodonlashtirilmagan. Shamsul-aimma al-Halvoniy nomi bilan bog‘liq mazkur hududda maqbara bunyod etilgan. Ichkarisida esa tuzilish tarhi kam uchraydigan qadimiy yakka qabr mavjud. Uning sirti maxsus yasalgan naqshinkor koshinlar bilan bezatilgan. Mahalliy aholi shu paytga qadar bu yerni Hazrati Shayxon ota mangu qo‘nim topgan manzil deb bilgan. Bundan tashqari, majmuada qadimiy imoratlarning qoldiqlari saqlanib qolgan.

— Ilgari otam shu yerga qarovchi bo‘lgan. Bugun bu vazifani o‘zim bajarib kelyapman, — deydi ziyoratgoh xodimi Elmirza Alimov. — Bu maqbara 2017-yili qayta ta’mirlandi. Narigi tarafdagi paxsadan qilingan imoratlardan o‘sha davrda, ya’ni X asrlarda hujra, tahoratxona va chillaxona sifatida foydalanilgan. Hozir ham ayrim xonalar butunligicha turibdi. Bundan tashqari, hovli o‘rtasidagi katta hovuz ham oldindan bor. Narigi chetda quduq bo‘lardi. Bugun ko‘milib ketgan. Lekin majmua to‘liqligicha o‘rganilmagan. Biz avvaldan maqbaradagi qabr Hazrati Shayxon ota Halvoniyga tegishli deb kelganmiz. Ammo keyingi yillarda ayrim kishilar qabrdagi yozuvni o‘rganish orqali uning Shamsul-aimma al-Halvoniy ekanini aniqladi. Shu yerning o‘zida kichik hajmli masjid ham bo‘lgan deyishadi.

Bu yerda boshqa ziyoratgohlarda uchramaydigan holat kichik hajmli hujralardir. Sababi ularning har biri oddiy paxsadan qilingan. Ko‘rinishi gumbazsimon shaklda bo‘lib, xonalar o‘z davrida turli vazifalarni o‘tagani ko‘rinib turibdi. Maqbaraning orqa tomonida ham bir paytlar qandaydir bino bo‘lganini anglash qiyin emas.

— Hududni obodonlashtirish davomida turli qadimiy buyumlar chiqib qoladi, — deydi Elmirza Alimov. — Barchasini bir yerga yig‘ib qo‘yaman. Biror kun mutaxassislar kelsa, qaysi davrga tegishli ekanini aniqlashar. Hozir topilmalarning ko‘pi juda qadimiy ekani aytilmoqda. Agar arxeologlar vaqt ajratib, bu yerda ishlasa, yanada ko‘p narsalar topilishi va majmua tarixi oydinlashishi mumkin.

Ushbu ziyoratgoh haqida ma’lumot to‘plar ekanmiz, turli manbalarga duch keldim. Xususan, Shamsul-aimma al-Halvoniy ismli kishi bilan bog‘liq manbalar Samarqand va Buxoro viloyatlarida ham uchrashi haqida aytib o‘tilgan. Umuman olganda, alloma haqida ko‘plab o‘rganishlar olib borilishi kerakka o‘xshaydi. Shundagina biz bugungi avlodga asl tarixni ochib bergan bo‘lamiz.

Akbar RAHMONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-546.
30636 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Asliddin Abdurazzoqov
Musahhih: Sherzod Mahmudov
Dizayner: Zafar Ro‘ziyev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e’lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05